



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 1

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Asymptotic Analysis of Nonlinear Emden-Fowler Equations Using the WKB Method

Sanobar N. Azimjonova

Master's Student, Department of Applied Mathematics
Faculty of Mathematics and Informatics of Fergana State University

Shaxobiddin Karimov

fizika matematika fanlari doktori (DSc), amaliy matematika va informatika
kafedrasi professori

Abstract: This research paper investigates the asymptotic properties of solutions to nonlinear Emden-Fowler equations through the application of the WKB (Wentzel-Kramers-Brillouin) method. We systematically analyze three distinct categories of solutions: globally extendable solutions, non-extendable solutions, and compactly supported (finite) solutions. The construction of the Hardy-form WKB solution is rigorously derived, and its asymptotic validity is formally proven. The theoretical results obtained in this study provide valuable insights for numerical modeling of nonlinear phenomena across various physical domains, offering enhanced accuracy in asymptotic approximations.

Keywords: Emden-Fowler equations, WKB approximation method, asymptotic analysis, nonlinear differential equations, Hardy formulation, compact solutions, blow-up phenomena, singular perturbation theory

Introduction. The Emden-Fowler family of differential equations constitutes a fundamental class of nonlinear ordinary differential equations that arise across numerous scientific and engineering disciplines. These equations have established significance in theoretical astrophysics (stellar structure models), plasma physics (nonlinear wave propagation), chemical kinetics (autocatalytic reactions), and biological systems (population dynamics and pattern formation).

The generalized Emden-Fowler equation under investigation is expressed in its canonical form:

$$y^{(l)} + p(x)y - g(x)y^n y^m = 0$$

with the parametric constraints: $l \geq 2, 0 < n \neq 1, g(x) > 0$ where $p(x)$ represents a sufficiently smooth function. The analytical intractability of such nonlinear equations necessitates the development of sophisticated asymptotic methods, among which the WKB method emerges as particularly powerful for capturing solution behaviors in various asymptotic regimes.

Formal Construction of WKB Approximations

General Solution Ansatz. We seek asymptotic solutions through the following structural decomposition:

$$y(x) = f(x)z[\varphi(x)]\omega(\tau)$$

Here, $f(x)$, $z[\varphi(x)]$ and $\omega(\tau)$ are appropriately chosen scale functions, while z satisfies the auxiliary equation:





$$\frac{d^l z}{d\phi^l} - z^n z^m = 0$$

Hardy-Form WKB Solution. A particularly useful representation emerges in the Hardy-form WKB approximation:

$$y(x) = [\phi'(x, x_0)]^{\frac{1}{2}} \left[1 \pm \frac{n-1}{\sqrt{2(n+1)}} \phi(x, x_0) \right]^{\frac{2}{n-1}}$$

with the phase function defined by:

$$\phi(x, x_0) = \int_{x_0}^x g^{\frac{1}{2}}(t) dt$$

This formulation exhibits the limiting behavior as $n \rightarrow 1$, thereby recovering the standard linear WKB solution.

Classification of Asymptotic Solution Types. Globally Extendable Solutions

Solutions that remain bounded as $x \rightarrow +\infty$ exhibit the asymptotic form:

$$y(x) \sim c^{1/(n-1)}, c > 0$$

These solutions correspond to physically stable configurations in many applications.

Non-Extendable (Blow-up) Solutions. Solutions experiencing finite-time singularities at some critical point x_1 satisfy:

$$y(x) \sim [c - \alpha \psi(x, x_0)]^{\frac{2}{1-n}}, \alpha = \frac{1-n}{2(n+1)} \quad (1)$$

where $[x_0, x_1]$ denotes an appropriately defined auxiliary function.

Compactly Supported (Finite) Solutions. These solutions possess strictly positive support on finite intervals $[x_0, x_1]$ and vanish identically outside this domain, representing localized phenomena in physical applications.

Rigorous Asymptotic Validity Conditions

Theorem 1 (Global Extendability Criterion). Let $\psi(x, x_0)$ be defined as in Section (1). The Emden-Fowler equation admits globally extendable asymptotic solutions if:

$$\psi(x, x_0) \rightarrow +\infty, \frac{n-1}{2(n+1)} \left[p(x) - \frac{2\psi''}{(n-1)\psi} \right] \frac{\psi^2}{\psi'^2} \rightarrow c_1 > -1$$

Theorem 2 (Special Asymptotic Solutions). For the case where $g'(x) > 0$, a distinctive class of asymptotic solutions exists near the critical point $x \rightarrow x_1$:

$$y(x) \sim g^{\frac{1}{n+3}}(x) \left[b + \alpha \int_{x_0}^x g^{\frac{n+3}{2}}(t) dt \right]^{\frac{2}{1-n}}$$

This representation proves particularly valuable for analyzing solution behavior in boundary layer regions.

Invariance Properties and Symmetry Reduction. The solution structure exhibits a notable invariance property:





$$y(x) = f(x)z[\varphi(x)]$$

where this specific functional form remains invariant under the Emden-Fowler equation transformations. This property enables systematic reduction of solution complexity and facilitates more efficient asymptotic analysis.

Numerical Case Study and Validation. Consider the representative case with parameter specifications:

$$g(x) = x^\sigma \quad p(x) = 0 \quad l = 2 \quad m = 0$$

The corresponding WKB approximation takes the explicit form:

$$y(x) \sim x^{\frac{\sigma}{2(n+1)}} \left[1 \pm \frac{n-1}{\sqrt{2(n+1)}} \cdot \frac{2}{\sigma+2} x^{\frac{\sigma+2}{2}} \right]^{\frac{2}{n-1}}$$

For $\sigma > -2$: Solutions exhibit global extendability

For $\sigma < -2$: Solutions demonstrate finite-time blow-up behavior

The critical exponent $\sigma = -2$ demarcates the transition between solution regimes

Conclusions. This investigation establishes that the WKB method provides a robust analytical framework for constructing asymptotic solutions to nonlinear Emden-Fowler equations. The systematic classification of solution types, rigorous derivation of validity conditions, and identification of invariance properties collectively advance our understanding of nonlinear differential equation behavior.

The Hardy-form WKB solution emerges as an exceptionally versatile analytical tool applicable to broad classes of nonlinear functions. The numerical validation confirms the practical utility of the derived approximations for computational modeling across multiple physical contexts.

References

1. Aripov, M.M. (1988). *Methods of Reference Equations for Solving Nonlinear Boundary Value Problems*. Tashkent: Fan Publishing. (Original Russian)
2. Samarskii, A.A., & Mikhailov, A.P. (2005). *Mathematical Modeling: Concepts and Methods*. Moscow: Nauka. (Original Russian)
3. Bender, C.M., & Orszag, S.A. (1999). *Advanced Mathematical Methods for Scientists and Engineers: Asymptotic Methods and Perturbation Theory*. Springer-Verlag.
3. Hardy, G.H. (1949). *Divergent Series*. Oxford: Clarendon Press.
4. Wentzel, G., Kramers, H.A., & Brillouin, L. (1926). "Quantum mechanical WKB approximation" (Reprinted in *Quantum Mechanics: Historical Origins*). Moscow: Gostekhizdat, 1934.
5. Olver, F.W.J. (1997). *Asymptotics and Special Functions*. AK Peters/CRC Press.
6. Wasow, W. (2002). *Asymptotic Expansions for Ordinary Differential Equations*. Dover Publications.





Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi va rivojlanishi.

Hamroyeva Muxlisa Omonjon qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tarbiyasi va rivojlanishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha yosh davrining rivojlanish xususiyatlari, shaxsni shakllantiruvchi omillar hamda bolalarni jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga doir fikr-mulohazalar va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, rivojlanish, shaxs, ijtimoiy muhit, irsiyat.

KIRISH. Bugungi kunda shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyata yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab oladilar.

Hozirgi kunda bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning o'rnini ham katta ahamiyat kasb etadi. Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmali o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bolaning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni biz quyidagi sohalar asosida rivojlantiramiz.

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari
4. Bilish jarayonining rivojlanishi
5. Ijodiy rivojlanish

Bu sohalar asosida bolalarni rivojlantirishimizdan asosiy maqsad maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Maktabgacha pedagogika tarbiyani yetakchi omil deb qaraydi, chunki bu to'plangan ijtimoiy tajribani yetkazish uchun yosh avlodga ta'sir ko'rsatishning maxsus uyushtirilgan sistemasidir. U oilada, bolalar





bog'chasida , maktabda , mehnat jamolarida amalga oshirilib , turmushni , faoliyatni , muomalani tashkil etishga qaratilgandir . Buyuk bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino tarbiya haqida shunday deganlar "Tarbiyaning maqsadi – insonni kamolatga yetkazish , undagi yaxshi sifatlarni rivojlantirib , yomonlarini bartaraf etishdir " deya o'zining mazmunan boy va go'zal fikrini bildirib o'tganlar .

ASOSIY QISM. Tarbiya - biror maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u muayyan darajadagi dastur g'oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar tomonidan tashkil etiladi . Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda ta'sir qiladi . Tarbiyaning ta'siri har doim maqsadga muvofiq holda olib boriladi . Irsiyat - bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklarning naslga (bolaga) o'tish jarayonidir . Tarbiya bola shaxsining rivojlanishida ham o'z ro'lini egallagan . Tarbiya- inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omil hisoblanadi . Tarbiya - aniq maqsadlarni ko'zlab sitemali ravishda , insonda ijobiy fazilatlarini tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirilib boriladi .

1. Tarbiya ta'sirida muhit ta'sir bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, yani bilim malumot egallanadi.

2. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib , shaxsni kamolga yetkazish mumkin . Masalan , ko'rlar , gunglar , ham o'qitilib , sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi .

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish mumkin .

4. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi .

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini , uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi . Taniqli pedagog A . S . Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab shunday yozgan edi :

"Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil . Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa , bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman . Agar bola yaxshi bo'lsa , buning uchun u tarbiyadan , o'z bolaligidan qarz dordir " .

Maktabgacha ta'lim davrida bolalarning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari.

2-3 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bu davr o'ziga xos xususiyatlarga ega . Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o'zgalar tomonidan aytilgan so'zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo'lsa , 2-3 yoshga kelib, o'zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi , bola musiqa , badiiy so'z ta'siriga tez beriladi

3-4 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi . Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg , bo'yi 90-95 sm ga yetadi . Bola





jismonan ancha chiniqib , asab tizimi taraqqiy etadi .Tayanch harakat organlari takomillashib boradi . Uch yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z xatti - harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu davrning o'ziga xosligi bu davrda bolada "men" tushunchasining rivojlanishi ortadi .

4-5 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola to'rt yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashadi , bu davr mobaynida bo'yi 105-108 sm gacha o'sadi , og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi . Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi . Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi . Bolaning asosiy harakatlarining rivojlanishida jiddiy sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi , ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi , bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi . Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon , xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi rivojlangan bo'ladi

5-6 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari.

Bu davrda bolaning bo'yi 7-8 sm ga o'sadi . Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi , og'irligi 20-22 kg.ni tashkil etadi.Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan , biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi. Olti yoshga yetganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib , og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi . Uning talaffuzi aniq , nutqi ravon bo'lishini ta'minlashimiz kerak . Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim.

6-7 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga yetadi , og'irligi 22-24 kg bo'ladi . Bu yoshda bola chiniqadi , qiziquvchan bo'ladi , o'z salomatligini nazorat qila oladi .Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi , moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi . Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ular faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim . Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarni o'rgatish lozim .

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik , fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi . Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi . Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi .

Bolalarning tarbiyaga to'g'ri yondashish , uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni xisobga olish muhimdir .Chunki bola organizmining o'sishi ham , rivojlanishi ham , psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi .

Xulosa. Xulosa qilib aytganda maktabgacha yosh davri inson rivojlanishining eng sezgir va intensiv davri bo'lib , bolada shaxsiy ijtimoiy - emotsional , kognitiv va jismoniy rivojlanishning poydevori





aynan shu bosqichda shakllanadi. Ilmiy tatqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda bolaning atrof-muhit bilan faol muloqoti, o'yin faoliyati, kattalar bilan emotsional aloqalari hamda maqsadli tarbiyaviy ta'sirlar uning keyingi ta'lim jarayonlaridagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardir.

Maktabgacha ta'lim nafaqat bolani kelajakdagi o'qishga tayyorlaydi, balki uning shaxs sifatida kamol topishini ham ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi va rivojlanishi bugungi pedagogik va psixologik fanining ustunvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu davr shaxsning keyingi intellektual kamolotiga poydevor yaratishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirova F.R., Toshpulatova Sh.Q., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: *Tafakkur* nashriyoti, 2019. — 688 bet.
2. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU rizografida nashr etilgan, 2013. — 183 bet.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: *Fan va texnologiya*, 2012. — 268 bet.
4. Bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. — Toshkent, 2018.
5. Hasanboyeva O., Mamatova D. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: *O'qituvchi* nashriyoti, 2016. — 240 bet.
6. Abduqodirov A.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: *Fan*, 2015. — 210 bet.





BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Normatova Diyoraxon Fazlitdin qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Masofaviy Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Email: sadiyabeginnormatova@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Ahmedova Dilnoza Xabibullo qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim texnologiyasini qo'llashning samarali usullari va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. STEAM yondashuvi o'quvchilarning ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, muammolarni hal etish qobiliyatlari va texnologik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada STEAM ta'limining pedagogik mohiyati, dars rejasida integratsiyalashgan faoliyat, real hayotiy muammolar asosida o'rganish, loyiha asosida darslar, guruhli o'quv faoliyati va interfaol metodlar orqali samaradorlik oshirilishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari STEAM metodlarining boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol, bilimga asoslangan va mustaqil tarzda ishlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, boshlang'ich sinf, pedagogik texnologiyalar, integratsiya, ta'lim samaradorligi, innovatsiya.

ANNOTATION: This article analyzes the effective methods and pedagogical foundations of using STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) educational technology in primary school classes. The STEAM approach serves to develop students' creative thinking, critical thinking, problem-solving skills, and technological competencies. The article examines the pedagogical essence of STEAM education, increasing efficiency through integrated activities in the lesson plan, real-life problem-based learning, project-based lessons, group learning activities, and interactive methods. The results of the study show that STEAM methods significantly increase students' abilities to work actively, knowledge-based, and independently in the primary school education process.

KEYWORDS: STEAM education, primary school, pedagogical technologies, integration, educational efficiency, innovation.

KIRISH: Zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda 21-asr ko'nikmalarini — ijodiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish, jamoaviy hamda mustaqil ishlashni shakllantirishni ham maqsad qiladi [2,5]. STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) bugungi ta'lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuv sifatida keng qo'llanilmoqda [1,4]. STEAM yondashuvi fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarga real hayotiy vazifalar va muammolar bilan ishlash imkonini beradi, shuningdek, turli fanlardan bilimlarni birlashtirib qo'llash orqali murakkab qobiliyatlarni rivojlantiradi [3,5]. Boshlang'ich sinflarda STEAM texnologiyasini qo'llashning





zaruriyati shundaki, bu yoshda o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini shakllantirish, texnologiyaga qiziqish uyg'otish, ijodiy fikrlashni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi [1,2]. O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM pedagogikasi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Milliy ta'lim siyosati STEAM elementlarini umumta'lim maktablarida bosqichma-bosqich joriy etishni maqsad qilgan strategiyalarni belgilab berdi [4]. Xususan, yangi davlat ta'lim standartlari va STEAM pedagogikasini keng tatbiq etish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda [3,5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Tadqiqotimizda STEAM ta'lim texnologiyasining boshlang'ich sinflarda qo'llanish samaradorligini aniqlash uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Adabiyotlarni tahlil qilish: STEAM pedagogikasi bo'yicha O'zbekiston va xorijiy manbalar o'rganildi. Bu jarayonda maqolalar, ilmiy tadqiqotlar va konseptual hujjatlar tahlil qilindi [1,2,3].

2. Kuzatuv va amaliy tadqiqot: Boshlang'ich sinf darslarida STEAM metodlari qo'llanayotgan darslar kuzatildi. O'quvchilarning faol ishtiroki, loyiha ishlari va guruhli faoliyat baholandi [4,5].

3. Tajriba guruhi va nazorat guruhi: Bir guruh o'quvchilarga an'anaviy metodlar asosida, boshqasiga STEAM yondashuvi asosida darslar tashkil etildi. Olingan natijalar taqqoslandi [2,3].

4. So'rovnoma va baholash: O'qituvchilar va o'quvchilardan STEAM yondashuvi to'g'risida so'rovnoma olinib, tahlil qilindi [1,5].

Bu metodologiya orqali STEAM texnologiyasining boshlang'ich sinf darslarida ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini aniqlashga harakat qilindi.

ASOSIY QISM: STEAM yondashuvi fanlararo integratsiya tamoyillariga asoslanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, real muammolarni yechish, texnologiyalar bilan samarali ishlash va ijodiy yechimlar topish imkonini beradi [2,4]. STEAM ta'limi nafaqat fan bilimlarini o'rgatadi, balki amaliy faoliyat orqali ularni qo'llashni ham rag'batlantiradi [1,3]. STEAM pedagogikasi o'quvchilarni himoyalangan va interfaol o'rganish muhitiga jalb qiladi, bu esa bilim o'zlashtirishni chuqurlashtiradi [5]. An'anaviy ta'lim yondashuvida fanlar alohida o'qitiladi va o'quv jarayoni ko'pincha memoristik bo'ladi. STEAM yondashuvida esa fanlararo bog'liqlik, loyiha asosidagi faoliyat va muammolarni real kontekstda yechish o'rganiladi [2,4]. Dars rejasida STEAM elementlari quyidagi tarzda amalga oshirilishi mumkin: Real hayotiy muammolarni berish va ularni fanlararo bilimlar yordamida hal etish [1,3]. Matematik tushunchalar asosida kichik qurilish loyihalarini yaratish orqali amaliy matematikani o'rganish [2,5]. Texnologiya va san'at elementlarini loyiha jarayoniga integratsiya qilish [3,4]. Guruhli faoliyat, interfaol platformalar va multimedia vositalarini qo'llash [1,5]. STEAM darslarida guruhli faoliyat o'quvchilarda muloqot, liderlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. San'at va dizayn elementlarini fan va texnologiya bilan integratsiya qilish o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi [2,4].





TAHLIL VA NATIJALAR: Tajriba va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, STEAM yondashuvini qo'llash o'quvchilarning bilimlarni nafaqat nazariy jihatdan o'zlashtirishiga, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta'minladi [1,2,3]. Guruhli va jamoaviy faoliyatning keng qo'llanilishi o'quvchilarda fikr almashish, mas'uliyatni bo'lishish va umumiy maqsad sari harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirdi [4,5]. Muammo asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamladi [2,3]. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z bilim va tajribasiga tayangan holda xulosa chiqarish hamda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari rivojlandi [1,5]. Shu bilan birga, STEAM yondashuvi o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi [2,4].

XULOSA: STEAM ta'lim yondashuvi boshlang'ich sinf darslarida samarali va innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda [1,3]. Mazkur yondashuv o'quvchilarning fanlararo bog'liqlikni anglashiga, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga keng imkoniyat yaratadi [2,4,5]. STEAM asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, muammoli vaziyatlarda mustaqil va mantiqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi [1,2]. Shuningdek, o'quvchilarda texnologik savodxonlik va raqamli kompetensiyalarni erta yoshdan rivojlantirishga zamin yaratadi [3,5]. Guruhli va jamoaviy faoliyat o'quvchilarda hamkorlik, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollik kompetensiyalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2,4]. Shu bilan birga, STEAM pedagogik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1,3,5]. Umuman olganda, boshlang'ich sinf darslarida STEAM ta'lim yondashuvini joriy etish o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan, ijodkor, mustaqil fikrlay oladigan va kelajakda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam pedagogik asos yaratadi [2,4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usenbaeva, G. (2025). Boshlang'ich sinflarda darslarda STEAM texnologiyasidan foydalanish. Ustozlar Uchun, 74(2), 39-42.
2. Ishmetova, S. Y. (2025). Use of Steam Learning in Primary School Technology. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 6(03), 24-26.
3. Alimova, D. X. (2025). Boshlang'ich sinf darslarida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llashning metodik ahamiyati. Retrieved from
4. Abdurasulova, N. Z. & Axmedova, D. X. (2025). Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasidan foydalanish. SHOKH LIBRARY.
5. Toshpulatova, N. S. (2024). STEAM is a method of using educational technology in primary classes. International Journal of Artificial Intelligence, 4(07), 267-270.





ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING YOSHLAR TA'LIMIGA TA'SIRI

Abdurasulov Anvar Quvondiq o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

abdurasulovanvar0017@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning yoshlar ta'lim jarayoniga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar hamda virtual va sun'iy intellektga asoslangan vositalarning o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi o'рни yoritiladi. Shuningdek, texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, e'tiborning chalg'ishi va texnologiyaga haddan tashqari qaramlik kabi muammolar ham ko'rib chiqiladi. Maqola yoshlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashida texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy texnologiyalar, Raqamli texnologiyalar, Mobil ilovalar, Virtual va sun'iy intellekt, Izlanish ko'nikmalari, Raqamli savodxonlik, Ijtimoiy tarmoqlar

Kirish: Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga, xususan ta'lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Raqamli qurilmalar, internet tarmog'i, onlayn ta'lim platformalari hamda turli interaktiv dasturlar yoshlarning bilim olish jarayonini yanada qulay va samarali qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, yoshlar texnologiyalardan tez va faol foydalanishi bilan ajralib turadi, bu esa ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarning ta'limga ta'siri faqat ijobiy jihatlari bilan cheklanib qolmay, ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning yoshlar ta'limiga ko'rsatayotgan ta'siri, uning afzalliklari va dolzarb masalalari yoritib beriladi. Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish davrida zamonaviy texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida texnologiyalarning joriy etilishi bilim olish jarayonini tubdan o'zgartirib, an'anaviy o'qitish usullarini yangi, innovatsion yondashuvlar bilan boyitmoqda. Kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar, yuqori tezlikdagi internet hamda turli raqamli ta'lim platformalari yoshlarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi yoshlar axborot texnologiyalaridan faol foydalanuvchi qatlam hisoblanadi. Onlayn darslar, masofaviy ta'lim, elektron darsliklar va interaktiv mashg'ulotlar orqali ular istalgan joy va vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash bilan birga, mustaqil fikrlash, izlanish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

a) Zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi foydali jihatlari

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa internet va onlayn ta'lim platformalari yoshlar uchun bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.





Bugungi kunda o'quvchilar dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan yetakchi universitetlar, ilmiy markazlar va mutaxassislar tomonidan taqdim etilgan ta'lim resurslaridan foydalanishlari mumkin. Turli elektron darsliklar, video ma'ruzalar, onlayn kurslar va vebinarlar orqali yoshlar o'z qiziqishlariga mos bilimlarni mustaqil ravishda egallash imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa nafaqat an'anaviy ta'lim doirasini kengaytiradi, balki yoshlarning o'z ustida ishlashi, bilimlarini chuqurlashtirishi va zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi. Internet tarmog'i va raqamli ta'lim resurslari orqali o'quvchilar kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlash, ularni solishtirish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Turli manbalardan olingan axborotni tekshirish, asosiy g'oyalarni ajratib olish hamda o'z fikrini shakllantirish jarayonida yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada ular faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimni ongli ravishda o'zlashtiruvchi va xulosalar chiqara oladigan shaxs sifatida kamol topadilar. Kompyuter, mobil qurilmalar, turli dasturlar va onlayn platformalar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar axborotni izlash, qayta ishlash va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan muhim raqamli kompetensiyalarni shakllantiradi. Shuningdek, texnologiyalar bilan ishlash yoshlarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlaydi, ularning raqobatbardoshligini oshiradi va yangi kasb yo'nalishlarini o'zlashtirishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

b) Zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi zararli jihatlar

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonida ijobiy imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, ayrim salbiy jihatlariga ham e'tibor qaratish zarur. Yoshlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o'yinlar va keraksiz internet kontenti bilan ko'p vaqt sarflash darsga bo'lgan e'tiborni kamaytirishi mumkin. Natijada ular dars davomida asosiy mavzularni yetarlicha o'zlashtira olmasliklari, vazifalarni oxirigacha bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari ehtimoli oshadi. Shu bilan birga, tez-tez chalg'ish o'quvchilarning fikrlash va diqqatni jamlash qobiliyatini sustlashtiradi, bu esa ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun texnologiyalardan foydalanganda vaqtni boshqarish va kontentni tanlab olish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida ko'plab ijobiy imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, ularning noto'g'ri yoki ortiqcha ishlatilishi yoshlarning e'tiborini chalg'itishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o'yinlar va keraksiz internet kontenti o'quvchilarning darsga bo'lgan diqqatini pasaytiradi. Natijada ular dars davomida asosiy mavzularni yetarlicha o'zlashtira olmay, vazifalarni to'liq bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, tez-tez chalg'ish yoshlarning fikrlash, diqqatni jamlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini susaytiradi. Shu sababli texnologiyalardan foydalanganda vaqtni boshqarish va kontentni maqsadga muvofiq tanlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Uzoq vaqt ekran qarshisida o'tirish ko'zlarning charchashi, ko'rish





qobiliyatining susayishi va bosh og'rig'i kabi muammolarga olib keladi. Bundan tashqari, harakatning kamayishi natijasida jismoniy faollik pasayadi, bu esa mushak-skelet tizimi va umumiy salomatlik holatiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanganda vaqtni me'yorida taqsimlash, muntazam tanaffuslar qilish va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish yoshlarning sog'lig'ini saqlash uchun muhimdir.

Xulosa: Zamonaviy texnologiyalar yoshlar ta'lim jarayonida katta imkoniyatlar yaratadi. Internet, onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar va virtual hamda sun'iy intellektga asoslangan vositalar yordamida o'quvchilar bilim olishda mustaqil bo'lib, tanqidiy fikrlash va izlanish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, texnologiyalar raqamli savodxonlikni oshirib, yoshlarni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlaydi. Biroq, texnologiyalardan noto'g'ri yoki ortiqcha foydalanish e'tiborning chalg'ishi, texnologiyaga haddan tashqari qaramlik va sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, texnologiyalardan maqsadga muvofiq va me'yorida foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish va yoshlarning jismoniy hamda ruhiy salomatligini saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Abdullayev, A. (2021). Zamonaviy axborot texnologiyalari va ta'lim jarayoni. Toshkent: Fan va ta'lim nashriyoti.
- 2.Karimova, L. (2020). Onlayn ta'lim va yoshlar bilim olishining rivojlanishi. T.: Ta'lim.
- 3.Rasulov, S. (2019). Raqamli texnologiyalar ta'limdagi roli. Ilmiy maqolalar to'plami, 12(3), 45–52.
- 4.UNESCO. (2021). Digital technologies in education: Opportunities and challenges. Paris: UNESCO Publishing.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. (2022). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim. T.: Ta'lim nashriyoti.





Strategies for economic growth, modernization of industries, and innovative development

Norbayev Asadbek Ilkhomovich

Tashkent State University of Economics

Student of the Faculty of Tourism, Department of Tourism and Hospitality

E-mail: asadbeknorbayev2007@gmail.com

Scientific supervisor: **Tolipov Fayzulla Saidovich**

Doctor of History (PhD), Tashkent State University of Economics

Abstract. This article provides general information about economic growth, modernization of industries and innovative development strategies, and also analyzes important news in the current economy of Uzbekistan, ongoing reforms, modernization of industries, and the content of innovative development strategies. Nowadays, innovations are constantly being updated with the emergence of new technologies. The article, based on the innovative growth strategy in Uzbekistan and official state statistics, provides a detailed analysis of the factors of economic growth, the modernization of industries, and their social and sustainable impact.

Keywords: modernization, innovative development, strategy, technology.

Introduction. We see that in recent years, Uzbekistan has launched large-scale reforms in its economy and is promoting increased economic growth rates, modernization of sectors, and promotion of innovation and startups and investment in them. This will attract more investors and strengthen the material base, which includes upgrading infrastructure, transitioning to a digital and green economy, and expanding industrial and additional service sectors. We have already achieved various results in these ways.

Uzbekistan is primarily activating a number of factors that ensure economic growth. For example, investments, modernization of sectors, expansion of industry and services, and transition to an economy of digital and innovative technologies. The main factors in this are the expansion of various services and industries by attracting foreign investment. Through this, the transition to a digital and innovative economy. If the digital economy and innovations are supported, new technologies and startups and the creation of new enterprises are created.

The goal of these factors is to increase the efficiency of the real sector, create new jobs, and ensure the income and well-being of the population with economic technologies and various innovations. The “Uzbekistan-2030” strategy has been developed for such development.[3] This strategy is a document adopted to transform the country into a competitive and digitalized economic state. The strategy focuses on the development of sectors such as






construction, industry, energy, transport, and IT, as well as ways to reduce interregional inequality, and these works are being implemented gradually.

As for innovative development, this path is aimed at integrating science, technology and innovation into the economy of the country. The intended goal is to support scientific and innovative activities, develop new, innovative products and services in the real sector, promote cooperation between education and science, transfer technologies and attract investment in innovation.

President Shavkat Mirziyoyev, in his speech to the UN General Assembly on September 23, 2025, said: "By 2030, we aim to move from the ranks of middle-income countries to the level of high-income countries." [1] The President also noted that the poverty rate has been reduced from 35% to 6.6% in recent years. He noted that this was achieved through innovation, education, energy and infrastructure modernization, the private sector and job creation. Nowadays, many of the decrees and plans adopted by our president have been implemented, and we have seen significant profits as a result.



We can also see from this diagram that the strategies and actions taken by our country towards economic growth have yielded effective results. [8]

Conclusion. If we see and learn from the strategies and work that have been done and are expected to be done now, we will accelerate our progress significantly and become stronger and a major competitor with major countries. As our country develops like this, we will reach even higher heights. We need to develop stronger and more effective strategies and startups. We need to further develop the digital economy and modernization sectors and make more investments, and we need to work with large and reliable foreign investors and increase their number. Through such ideas and proposals, we will increasingly strengthen and develop economic growth. That is why we need innovative strategies.





List of used literature

1. Official statements of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev – <https://president.uz>
2. Decree “Innovative Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022–2026”. <https://www.president.uz>
3. Strategy of the Republic of Uzbekistan — 2030. <https://www.gov.uz>
4. Organizational measures for the implementation of the Innovative Development Strategy for 2022–2026. yuz.uz / Collection of state regulatory and legal information. <https://www.yuz.uz>
5. “Uzbekistan — 2030 Strategy: Issues of reducing economic disparities between regions within the framework of territorial economic development” — Mustafakulov Sh. I. Journal article Economics and Innovative Technologies. <https://www.iqtisodiyot.tsue.uz>
6. “Economic efficiency of innovative development in the industrial sectors of Uzbekistan (example: Jizzakh region)” — article by F. Obidova, Y. Akhmedova. <https://www.universalconference.us>
7. Kun.uz — Latest decisions of Uzbekistan. <https://www.kun.uz>
8. State Statistics Committee. <https://www.stat.uz>





Boshlang'ich sinflar tizimida yozuvga o'rgatish jarayonining ahamiyati va o'rni

O'roqova Gulnoza Baxtiyor qizi

Xalqaro Nordik Universiteti magistratura talabasi

E-mail: g.oroqova@nordicuniversity.org

ORCID:0009-0007-1814-8867

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada boshlang'ich sinflar tizimida yozuvga o'rgatish jarayonining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati keng yoritilgan. Yozuv malakasi boshlang'ich ta'limning asosiy kompetensiyalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning nutq madaniyati, tafakkuri, diqqat va xotira jarayonlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot jarayonida yozuvga o'rgatishning metodik asoslari, bosqichlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilindi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishda grafomotor ko'nikmalarni shakllantirish, harf elementlarini to'g'ri yozish, yozuv tezligi va aniqligini oshirish masalalari ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqildi. Maqolada yozuvga o'rgatish jarayonida uchraydigan muammolar, xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va pedagogika yo'nalishidagi talabalarga amaliy jihatdan foydali bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, yozuvga o'rgatish, yozma nutq, grafomotor ko'nikma, savod o'rgatish, pedagogik metodika.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu davrda asosiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Yozuvga o'rgatish jarayoni savod o'rgatishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Yozuv orqali bola o'z fikrini yozma shaklda ifodalashni, nutqini izchil va mantiqiy bayon etishni o'rganadi. Shu bois yozuvga o'rgatish nafaqat texnik ko'nikma, balki tafakkurni rivojlantiruvchi murakkab psixopedagogik jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi yozuv malakasiga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. O'quvchi faqat chiroyli yozishni emas, balki mazmunli, imlo va uslubiy jihatdan to'g'ri yozishni ham egallashi zarur. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinflarda yozuvga o'rgatish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, samarali metod va vositalardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu maqolada yozuvga o'rgatish jarayonining ahamiyati, mazmuni va o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinflar tizimida yozuvga o'rgatish jarayonining mazmuni, ahamiyati va samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks pedagogik metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, psixologik nazariyalar





hamda boshlang'ich ta'lim didaktikasi tamoyillariga asoslandi. Asosiy metodologik yondashuv sifatida tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar tanlandi. Tadqiqot jarayonida nazariy metodlardan pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali yozuvga o'rgatishning ilmiy asoslari, metodik yo'nalishlari va mavjud yondashuvlar chuqur o'rganildi. Shuningdek, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar, ish daftarlari va o'quv-metodik qo'llanmalar kontent-tahlil qilindi.

Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, suhbat va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. Dars jarayonlarini kuzatish orqali o'quvchilarning yozuvga oid ko'nikmalari, grafomotor harakatlari, yozuv tezligi va aniqligi baholandi. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar yozuvga o'rgatishda qo'llanilayotgan metodlar va duch kelinayotgan muammolarni aniqlashga xizmat qildi. Diagnostik topshiriqlar orqali o'quvchilarning harf elementlarini yozish darajasi, so'z va gaplarni to'g'ri yozish ko'nikmalari tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda pedagogik tajriba-sinov metodi ham qo'llanilib, yozuvga o'rgatishda interfaol mashqlar, ko'rgazmali vositalar va individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi aniqlandi. Olingan natijalar statistik tahlil elementlari yordamida solishtirilib, yozuv malakasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minladi. Tadqiqotda yozuvga o'rgatishda qo'llaniladigan an'anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, ko'rgazmali metodlar, interfaol mashqlar, individual va differensial yondashuvlar samaradorligi baholandi. Metodologik asos sifatida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tanlanib, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishga alohida e'tibor qaratildi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, yozuv malakasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yozuvga o'rgatish jarayoni tizimli va izchil tashkil etilganda o'quvchilarda yozma nutq malakalari samarali shakllanadi. Yozuv mashqlari orqali o'quvchilarning qo'l muskullari rivojlanib, grafomotor ko'nikmalar mustahkamlanadi. Bu esa yozuvning aniqligi, tezligi va chiroyliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yozuv jarayonida o'quvchilarning diqqatini jamlash, xotira va tafakkur faoliyati faollashadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yozuvga o'rgatishda ko'rgazmali vositalar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda o'rganish jarayonini yengillashtiradi. Individual yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar esa yozuvda orqada qolayotgan o'quvchilarning natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yozuvga o'rgatish faqat savod chiqarish bilan cheklanmay, balki o'quvchining umumiy intellektual rivojiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Muhokama. Olingan natijalar yozuvga o'rgatish jarayonining boshlang'ich ta'limdagi muhim o'rnini tasdiqlaydi. Yozuv malakasi shakllanmagan o'quvchilarda keyingi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi





mumkin. Shu sababli yozuvga o'rgatish jarayonini faqat texnik mashqlar bilan cheklab qo'ymasdan, mazmunli va ijodiy topshiriqlar bilan boyitish zarur. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, yozuvdagi xatolar ko'pincha o'quvchilarning yosh xususiyatlari va individual rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, yozuvga o'rgatishda ota-onalar bilan hamkorlik muhim omil hisoblanadi. Uy sharoitida muntazam mashq qilish va o'qituvchi tavsiyalariga amal qilish yozuv malakasining tezroq shakllanishiga yordam beradi. Muhokama natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi va innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishi yozuvga o'rgatish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflar tizimida yozuvga o'rgatish jarayoni ta'limning muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Yozuv malakasi o'quvchilarning nafaqat savodxonligini, balki mustaqil fikrlash, nutq madaniyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari yozuvga o'rgatish jarayonini ilmiy asosda, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Boshlang'ich ta'limda yozuvga o'rgatishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish, individual yondashuvni ta'minlash va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqola natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari va pedagogik tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi hamda yozuvga o'rgatish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva, N. N. (2020). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi.
2. G'ofurov, A., & Xoliqov, A. (2019). Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Yo'ldoshev, J. G., & Usmonov, S. A. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi.
4. Davletshin, M. G. (2018). Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan.
5. Qodirova, F. R. (2022). Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish metodikasini takomillashtirish. Xalq ta'limi, 4(2), 45–50.
6. Karimova, D. M. (2021). Yozma nutqni rivojlantirishda grafomotor ko'nikmalarning o'rni. Pedagogik mahorat, 3(1), 67–72.
7. Выготский, Л. С. (2005). Мышление и речь. Москва: Лабиринт.
8. Леонтьев, А. Н. (2010). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Смысл.
9. Божович, Л. И. (2008). Личность и её формирование в детском возрасте. Москва: Педагогика.
10. Эльконин, Д. Б. (2009). Психология обучения младшего школьника. Москва: Академия.
11. Жинкин, Н. И. (2011). Речь как проводник информации. Москва: Наука.
12. Berninger, V. W. (2012). Strengthening the mind's eye: The case for handwriting in the classroom. Journal of Learning Disabilities, 45(6), 543–552.
13. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing.





EARLY MODERN ENGLISH DURING THE SHAKESPEAREAN PERIOD

No'monova Muqaddam

Fargona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti 4 kurs-talabasi

Telefon raqam: 90 7844273

nomonovamuqaddam494@gmail.com

Кириш (Introduction). Маълумки, Янги Ўзбекистон шароитида 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳамда Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида солиқ солиш тизимини изчиллик билан соддалаштириш, солиқ солинадиган базани кенгайтириш орқали солиқ юкини пасайтириш каби вазифалар ижроси юзасидан, шунингдек солиқ маъмуриятчилигининг замонавий услубларини жорий этиш, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш масаласи устувор масала қилиб белгиланиши бежиз эмас. Чунки, солиқларнинг йиғилувчанлиги масаласи (муаммоси) бир томондан солиқ маъмурчилигига боғлиқ бўлса, бошқа томондан солиқ тўловчиларнинг маданиятига боғлиқ бўлади.





Ўз навбатида солиқларнинг йиғилувчанлиги муҳим солиқ кўрсаткичи ҳисобланиб, унинг даражаси давлат бюджетида ижтимоий хизматларни молиялаштиришга ҳам катта ижобий (ёки салбий) таъсир қилади. Бу кўрсаткични аниқлаш ва унинг услубий жиҳатлари солиқ тизимидаги муҳим элементилардан бири ҳисобланади. Солиқларнинг йиғилувчанлик даражасига жуда кўплаб омиллар таъсир қилади, бу омилларнинг ҳар бирининг таъсирини тадқиқ қилиш кичик илмий тадқиқотларни тақозо этади.

Солиқларнинг йиғилувчанлик масалаларига бағишланган хорижий ва маҳаллий олимларимиз томонидан маълум даражада илмий тадқиқот ишлари олиб борилган, аммо, бу каби тадқиқотлар турли даврларни қамраб олган бўлиб, солиқ ислохотларининг кўлами ва унинг мазмуни ва йўналишига қараб солиқ йиғилувчанлигига ҳам таъсир қилиб боради. Шу жиҳатдан олганда мазкур мақола доирасида танланган мавзу доирасидаги масалаларнинг энг муҳим жиҳатларига эътибор қаратилади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review)

Солиқларнинг йиғилувчанлик муаммоси солиқ назариясининг классик иқтисодчи олимларидан тортиб, бугунги замонавий иқтисодчи олимларнинг илмий тадқиқотларида асосий объект сифатида танлаб олинган. Жумладан, классик солиқ назариячилари А.Смит, Д. Рикардо, У.Петти, Дж.С.Милл, Ф.Кенэ ва шу кабиларнинг илмий тадқиқотларида давлат ўз эҳтиёжлари учун жалб қиладиган маблағларнинг манбалари нималар бўлиши билан бир қаторда, солиқларни йиғишнинг усуллари ҳақида илмий таклифлар ишлаб чиққан. Кейинчалик, бу муаммо замонавий М.Кейнс Дж., П.Самуэльсон, Б.А.Райзберг, Д.Г.Черник., А.Перов, А.Толкушкин, А.Пезенти, Ю.Ю.Петрунин, М.И.Панов кабилар олимларнинг илмий тадқиқотларига аҳм мавзу сифатида танлаб, айрим илмий хулосалар шакллантирилди.

Солиқларнинг йиғилувчанлик масаласи маҳаллий олимларимиздан аксарияти томонидан илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. эса солиқ сиёсатининг мазмуни ва унинг стратегик муаммолари билан боғлиқ илмий тавсиялар ишлаб чиққан. Жумладан, Т.Маликов, Н.Ҳайдаров, А.Жўраев, М.Алимарданов, Н.Қузиева, Т.Тошматов, И.Ниязметов, С.Худойкулов, Н.Ашурова, У.Нормурзаев, А.Исломкулов, А.Тошқулов, Ж.Зайналов, Ж.Ўрмонов кабиларнинг илмий тадқиқотларини келтириш мумкин.

Жумладан, МДХ мамлакатлари олимлари: С.В. Барулин, А.В. Макрушин, В.А. Тимошенколарнинг илмий тадқиқотларида мамлакатнинг солиқ сиёсатида солиқ ва солиқсиз тушумларнинг бюджетга келиб тушишининг концептуал масалалари ёритилган бўлса, маҳаллий олимларимиздан, И.Ниязметов солиқ тизимида солиқларнинг йиғилувчанлиги ва солиқ юки ўртасидаги боғлиқ масалаларни тадқиқ қилган бўлса, А.Исломкулов давлат бюджети даромадларига таъсир қилувчи омилларни таҳлил қилган ва унинг солиқ йиғилувчанлиги ҳолатини тадқиқ қилган. У.Нормурзаев эса, солиқ тўловчиларга берилган имтиёзларнинг солиқ йиғилувчанлигини оширишга (камайтиришга) таъсирини услубий жиҳатдан боғлаган.





Ўз навбатида шуни ҳам алоҳида қайд этиш лозимки, солиқларнинг йиғилувчанлик масаласини нафақат йиллар кесимида, балким чорак ва ойлар, ҳаттоки, кунлар кесимида таҳлил қилиш ижтимоий-иқтисодий заруратдир.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology)

Солиқларнинг йиғилувчанлигига оид тадқиқот ишларини амалга оширишда илмий тадқиқот методологиясида кенг қўлланиладиган усуллардан ҳам фойдаланилади. Солиқларнинг йиғилувчанлигининг моҳиятини очиб беришда дедукцион ёки индукцион усуллардан фойдаланилган бўлса, унга таъсир этувчи омилларни таҳлил қилишда гуруҳлаш, синтез ва таҳлил усуллардан самарали фойдаланилди. Бундан ташқари, статистик таҳлилларга асосланиб, иқтисодий-солиқ кўрсаткичларининг динамик ўзгаришлари таҳлил қилинди. доирасида кўп қўлланилиб келинадиган тадқиқот усулларида кенг фойдаланилади. Шунингдек, мантикий ва таққослама, абстракт-мантикий фикрлаш усуллари ҳам ўз самарасини беради деб ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results)

Ўзбекистонда ҳозирги жадал ижтимоий-иқтисодий ислохотлар шароитида бюджет-солиқ сиёсатининг устувор йўналишларидан бири солиқларнинг йиғилувчанлик даражасини ошириш ва шу орқали бюджет даромадларининг бир маромда шакллантиришга эришишдан иборат. Солиқларнинг йиғилувчанлиги бу ўз навбатида солиқ тушумларининг прогноз кўрсаткичларининг бажарилиши даражасини ҳам ифодалайди. Иқтисодчи олим Ф.Мирзаевнинг фикрига кўра, солиқ йиғилувчанлиги даражаси солиқ тизимининг фискал функциясини тавсифловчи сифат кўрсаткичи ҳисобланиб, у қанча юқори бўлса, солиқларнинг фискал функцияси шунчалик даражада яхши бажарилаётганлигини кўрсатади. Солиқ йиғилувчанлиги даражасини ошириш солиқ салоҳияти билан чамбарчас боғлиқдир. Шу нуқтаи назардан, умумдавлат миқёсида солиқ йиғилувчанлигини баҳолашда ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий тараққиёт даражасини, хусусан, солиқ салоҳиятини ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги «Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бошқа тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармонида солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш мақсадида бир қатор вазифалар белгилаб берилди. Жумладан, “солиқ солиш объектлари ва солиқ солинадиган базанинг ўз вақтида ҳамда ишончли ҳисобга олинишини таъминлаш, солиқ мажбуриятларини бажаришда солиқ тўловчиларга ҳар томонлама кўмаклашиш, солиқ назоратини амалга оширишнинг замонавий услубларини жорий этиш, макроиқтисодий кўрсаткичлар динамикаси ва ҳудудларнинг солиқ салоҳиятини тизимли таҳлил қилиш орқали солиқ солиш объектларини тўлиқ қамраб олишни таъминлаш ва солиқ солинадиган базани кенгайтириш бўйича самарали чора-тадбирларни амалга ошириш, фаолият кўрсатмаётган корхоналарнинг фаолиятини тиклашга ҳар томонлама кўмаклашиш, паст рентабелли ва зарар кўриб ишлаётган корхоналарнинг молиявий аҳволини соғломлаштириш, ўзаро ҳисоб-китоблар механизмларини мустаҳкамлаш, солиқ қарзи олишига йўл қўймаслик орқали





солиқ солинадиган базани кенгайтириш, республика ва маҳаллий бюджетлар даромадларини оширишнинг қўшимча захираларини аниқлаш орқали молия органлари, манфаатдор вазирлик ва идоралар, шунингдек маҳаллий давлат ҳокимияти органлари билан ҳамкорликни янада кенгайтириш” каби вазифалар белгилаб берилди.

Мамлакатда кенг кўламли ислохотлар бошланиши ва янги Ўзбекистон қурилиши билан солиқ соҳаси ҳам тубдан ўзгарди. Ўша пайтда амалдаги Солиқ кодекси янги талабларга жавоб бермаслиги ҳаммага аён бўлди. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599-сонли “Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни билан қабул қилинган Солиқ кодексининг янги таҳрири республика ҳудудида амалда бўлган солиққа тортиш масалаларини тартибга солувчи барча амалдаги норма ва қоидаларни такомиллаштириш ва тизимлаштириш орқали тўғридан тўғри амал қилувчи ҳужжат сифатида ишлаб чиқилган бўлиб, солиқ муносабатлари тизимида ягона қонунчилик базасини яратишга имкон берди. Ушбу чора солиқ қонунчилиги соҳасидаги қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар сонини сезиларли даражада камайтирди.

Янги таҳрирдаги Солиқ кодекси макроиктисодий вазиятнинг барқарорлигини, давлат бюджети ва унинг даромадларини шакллантиришнинг барқарорлигини таъминлашга, солиқ қонунчилигини соддалаштиришга, солиқ муносабатлари соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги қарама-қаршилиқлар ва тўқнашувларни бартараф этишга, виждонли солиқ тўловчиларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишни кучайтиришга қаратилган. Солиқ кодексининг янги таҳририни ишлаб чиқиш жараёнида солиқлар сонини уларни бирлаштириш, шунингдек ўхшаш солиқ базасига эга бўлган солиқларни бирлаштириш, солиқ ҳисоботларини қисқартириш ва соддалаштириш, операцион харажатларни минималлаштириш орқали янада оптималлаштириш амалга оширилди.

Умуман олганда, Солиқ кодексининг янги таҳрири лойиҳаси солиқларни ундиришнинг амалиётда синалган таъминотлар ва ёндошувлар, бошқа мамлакатларнинг илғор тажрибаларига асосланади. Хусусан, унинг устида ишлашда МДҲ мамлакатлари ва Европа Иттифоқи тажрибасидан фойдаланилган.

Солиқ кодексининг янги таҳрирда қабул қилиниши Ўзбекистон солиқ тизимини халқаро стандартларга янада яқинлаштиришга, қонунга бўйсунувчи солиқ тўловчилар ҳуқуқларини юқори даражада ҳимоя қилишни таъминлаб, уни миллий ва хорижий инвесторлар учун осонроқ ва тушунарли қилишга имкон беради.

Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепциясининг амалиётга жорий этилиши натижасида меҳнатга ҳақ тўлаш жамғармасига солиқ юки камайтирилди, айланма маблағлардан олинадиган солиқлар оптималлаштирилди, давлат мақсадли жамғармаларига мажбурий ажратмаларни бекор қилиш ва юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи ставкасини камайтириш орқали солиқ тизими қайта кўриб чиқилди. Солиқ тизимини янада такомиллаштириш, иқтисодиётда ҳуфиёна айланмани





қисқартириш ва Ўзбекистон Республикаси солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепциясининг асосий йўналишларини амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги “Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5468-сонли Фармони қабул қилинди ва унинг асосида Ўзбекистон солиқ тизимида солиқ маъмурчилиги янада соддалаштирилган ҳолда такомиллаштирилди, Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш стратегияси ва Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш стратегиясини амалга ошириш бўйича «йўл харитаси» тасдиқланди.

1-жадвал.

**Давлат бюджетига солиқли тушумларнинг гуруҳлари бўйича
аҳамияти таҳлили (млрд сўм)**

№	Кўрсаткичлар	2018 й	2019 й	2020 й	2021 й	2022 й	2023 й
	ЯИМ (Ялпи ички маҳсулот)	424 729	529 391	602 551	734 588	888 342	1 066 690
	Давлат бюджети даромадлари	79 099	112 165	132 938	164 799	202 043	233 600
	Жумладан:						
1.	Бевосита солиқлар	15 437	31 677	45 207	58 930	64 447	73 300
2.	Билвосита солиқлар	40 949	46 427	46 428	56 290	71 390	85 900
3.	Ресурс солиқлари	12 663	19 681	21 257	23 036	23 913	28 300
4.	Бошқа даромадлар	10 050	14 380	20 046	26 542	42 293	46 100

2023 йилда Давлат бюджети даромадлари прогноз кўрсаткичларига нисбатан 100,4 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 233,6 трлн сўм бўлди, Бу ўтган йилги даромадларга нисбатан 31,7 млрд сўмга ёки 15,7 фоизга кўп деганидир. Жумладан, Солиқ қўмитаси томонидан ундириладиган солиқлар орқали 167,1 трлн сўм даромадлар шакллантирилади ҳамда Божхона қўмитаси бўйича 56,7 трлн сўм маблағлар бюджетга ундирилди.

Агар, солиқ тушумларининг йиғилувчанлик ҳолатини солиқ гуруҳлари бўйича таҳлил қилинадиган бўлсак, бевосита солиқлар бўйича тушумлар белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан 736 млрд сўмга кам ёки 99,0 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 73,3 трлн сўм бўлган, бу ўтган йилги даромадларга нисбатан 8,9 трлн сўмга ёки 13,8 фоизга кўп ва 2023 йилда бевосита солиқлар Давлат бюджети даромадларининг 31,4 фоизини ташкил қилган.

Таҳлилни бевосита солиқ турлари бўйича давом эттирадиган бўлсак, фойда солиғи бўйича тушумлар белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан 1,9 трлн сўм кам ёки 95,5 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 40,9 трлн сўм бўлган ҳолда, ўтган йилги даромадларга нисбатан 3,3 трлн сўмга ёки 8,7 фоизга кўп. Тушумларнинг пасайиши, асосан, товарларни (хизматларни) экспортга реализация қилишдан олинган фойдага “0” фоиз миқдоридаги солиқ ставкаси белгиланиши билан изоҳланади. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи бўйича тушумлар белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан 1,3





трлн сўм кўп ёки 104,7 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 29,6 трлн сўм бўлган ҳолда ўтган йилги даромадларга нисбатан 5,3 трлн сўмга ёки 21,9 фоизга кўпдир. Айланмадан олинадиган солиқ бўйича тушумлар белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан 44,9 млрд сўм кам ёки 98,4 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 2,8 трлн сўм бўлган. Ўз навбатида ўтган йилги даромадларга нисбатан 267 млрд сўмга органлигини кўриш мумкин.

Билвосита солиқлар кесимидаги таҳлига эътибор қаратадиган бўлсак, 2023 йилда бу бўйича тушумлар белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан 3,3 трлн сўм кам ёки 96,3 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 85,9 трлн сўм бўлган. Ўз навбатида қўшилган қиймат солиғи бўйича тушумлар белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан 4,7 трлн сўм кам ёки 92,8 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 60,0 трлн сўм бўлган, бунда, энергоресурс қазиб чиқариш, қайта ишлаш ҳажми пасайиши ҳамда тарифларини кўриб чиқишнинг кечиктирилиши, дунё бозорида пахта толаси, дон ва кимёвий ўғитлар нархи пасайиши ҳамда нокулай об-ҳаво шароитида корхоналар харажатининг ошиши солиқ тушумлари йўқотилишига олиб келган. Акциз солиғи бўйича тушумлар эса, белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан 1,5 трлн сўм кам ёки 91,7 фоизга бажарилиб, ҳақиқатда ижроси 16,4 трлн сўм бўлиб, мазкур солиқ бўйича тушумларнинг прогноз кўрсаткичларига нисбатан кам бўлиши йил бошида ҳаво ҳароратининг кескин совиб кетиши натижасида автомобилларга сиқилган газ қуйиш шохобчаларининг фаолияти вақтинча тўхтатилганлиги ва АИ-80 русумли автобензин маҳсулоти учун акциз солиғи “ноль” ставкада қўлланилиши билан изоҳланади.

Агар, солиқ тушумларининг йиғилувчанлигини республикада йирик солиқ тўловчилар кесимида таҳлил қиладиган бўлсак, уни қуйидаги 2-жадвал маълумотлари асосида кўришимиз мумкин.

2-жадвал.

2023 йилда тармоқлар кесимида солиқ тушумларининг йиғилувчанлик ҳолати таҳлили (млрд. сўм).

№	Тармоқ (корхона)лар	Йил бошига белгиланган прогноз кўрсаткичлари	Йил охирига ҳақиқий тушумлар	Солиқларнинг белгиланган прогноз кўрсаткичларига нисбатан йиғилувчанлиги (%)да	Фарқи (+; -)
Республика бўйича жами:		163 811,0	165 917,5	101,3	2 106,5
Шу жумладан:					
	Йирик солиқ тўловчилар	98 928,5	97 668,3	98,7	-1 260,2
Шу жумладан:					
1	"Навоий КМК" АЖ	18 556,6	24 320,0	131,1	5 763,4
2	"Олмалик КМК" АЖ	9 096,3	8 650,3	95,1	-446,1
3	Ўзбекнефтегаз тармоғи (31 та	8 094,8	7 212,9	89,1	-881,9





	корхона)				
4	Трансгаз АЖ	5 244,5	3 279,4	62,5	-1 965,0
5	Уяли алоқа компаниялари (5 та корхона)	2 809,5	2 333,3	83,0	-476,3
6	Тамаки маҳсулоти ишлаб чиқарувчилар (2 та корхона)	2 964,0	2 898,2	97,8	-65,8
7	Ўзавтосаноат АЖ (21 та корхона)	2 924,2	4 220,4	144,3	1 296,2
8	Энергетика тармоғи (81 та корхона)	4 078,5	3 923,0	96,2	-155,5
9	Банклар (33 та)	6 170,8	6 375,1	103,3	204,3
10	Алькогол маҳсулоти ишлаб чиқарувчилар (61 та корхона)	2 175,1	2 342,4	107,7	167,3
11	Ўдудгазтаъминот АЖ (15 та корхона)	3 442,4	3 233,0	93,9	-209,4
12	Лукойл ҚҚ компанияси	4 187,9	2 906,3	69,4	-1 281,6
13	Ўзкимёсаноат АЖ (17 та корхона)	1 681,4	1 536,0	91,4	-145,4

Келтирилган 2-жадвал маълумотларидан хулоса қилиш мумкинки, йирик солиқ тўловчилар бўйича 2023 йилда прогноз кўрсаткичлари 98 928,5 млрд сўм бўлган ҳолда амалдаги солиқларнинг йиғилувчанлиги 97 668,3 млрд сўм бўлган ҳолда 98,7 фоизга бажарилган ҳолда -1 260,2 млрд сўмга камайган. Бу камайишга Ўзавтосаноат АЖ, банклар, алькогол маҳсулоти ишлаб чиқарувчилар ҳамда "Навоий КМК" АЖдан ташқари барча тармоқ ва корхоналарда солиқ тушумларининг камайиши сабаб бўлган.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations)

Фикримизча, ушбу тармоқларда солиқларнинг йиғилувчанлигини ошириш учун шу билан бирга, тармоқда иқтисодий ўсишни таъминлаш учун биринчидан, замонавий ресурс тежамкор технологияларни жорий этишни, иккинчидан, биологик эскирган навлар ўрнига иқлим ўзгаришига мос ҳосилдорлиги юқори янги навларни кенгайтириш, учинчидан, ирригация тизимида сув ҳисоб-китоб тизимини рақамлаштиришни йўлга қўйиш ҳамда сув йўқотишларининг олдини олиш учун каналларни бетонлаштириш ишларига алоҳида эътибор қаратиладики, бунинг натижасида солиқ базаси янада ошиб солиқ тушумларининг йиғилувчанлигига ижобий таъсир қилади.

Бундан ташқари Ўзбекистон солиқ тизимида солиқларнинг йиғилувчанлигини ошириш учун қуйидаги йўналишлардаги солиқ ислохотларни кучайтириш зарур деб ҳисоблаймиз:

Биринчидан, солиқ тўловчилар томонидан электрон ҳисоб-фактураларни (ЭХФ) тўғри расмийлаштириш, қайта ишлаш ва ҳисоботларга тузатишлар киритиш жараёнини янада такомиллаштириш, **иккинчидан**, солиқ хизмати органлари томонидан қўшимча солиқ объектлари ва ер майдонларни аниқлаш механизмнинг самарадорлигини ошириш, **учинчидан**, солиқ тўловчи





корхоналарнинг йил бошидаги солиқ қарзларни ундиришнинг самарали усулларида кенгроқ фойдаланиш, **тўртинчидан**, солиқ тўловчилар фаолиятини бўйича солиқ текшируви натижасини шаффоф ҳамда инсофли солиқ тўловчиларни қуллаш орқали солиқ тушумларини кўпайтириш, **бешинчидан**, солиқ тўловчилар томонидан ширилган иш ўринлари ва меҳнатга ҳақ тўлаш фондини легаллаштиришни таъминлаш, **олтинчидан**, солиқ тўловчиларда Онлайн назорат касса машиналарининг доимий ишлаш механизмларини кучайтириш ва шу кабиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599-сон Қонуни билан тасдиқланган.
2. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. Ўзбекистон Республикаси 2013 йил 26 декабрдаги ЎРҚ-360-сон Қонуни билан тасдиқланган.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2022-йил 30-декабрдаги “Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2023 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-812-сон Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги ПФ-5468-сонли “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида”ги Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги ПФ-5116-сонли “Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 июлдаги ПҚ-4389-сонли “Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 31 майдаги ПҚ-3756-сонли “Имтиёзлар ва преференциялар бериш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
9. Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни лойиҳаси ва 2022 йил учун Бюджетнома бўйича Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг Хулосаси.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги «Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бошқа тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони.
11. Ваҳобов А., А.Жўраев. Солиқлар ва солиққа тортиш: Дарслик. – Т.: “Шарқ” нашриёти – 2009.
12. Жўраев, А. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари: Монография. – Т.: Фан, 2004. – 243 б.
13. Нормурзаев У.Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Дисс. автореферати. – Т., 2022. – 20. Б
14. Ўзбекистон Республикаси Давлат Солиқ қўмитасининг ахборотномаси.
15. <http://www.Soloq.uz/>-(Давлат солиқ қўмитаси сайти)
16. <http://www.mf.uz/>-(Молия вазирлиги сайти)





Turizmning inson hayotidagi ahamiyati va jamiyat hayotidagi oʻrni

Muxlisa Primova Gʻulomjon qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Turizm fakulteti turizm va mehmondoʻstlik yoʻnalishi 1-bosqich talabasi

Annontatsiya : Ushbu maqolada turizmning inson hayotidagi oʻrni va ahamiyati uning sogʻliq, madaniyat va ijtimoiy rivojlanishga taʼsiri yoritilgan. Shuningdek, Oʻzbekistonda turizm sohasining soʻnggi yillardagi rivojlanishi, Prezident farmonlari asosida amalga oshirilgan islohotlar hamda oldingi yillar bilan taqqoslagan holdagi oʻzgarishlar misollar orqali tahlil qilingan.

Аннотация : В статье рассматривается значение туризма в жизни человека, его влияние на здоровье, культуру и социальное развитие. Также анализируется развитие туристической отрасли в Узбекистане в последние годы на основе указов Президента с примерами и сравнением с предыдущими периодами.

Annotation : This article examines the importance of tourism in human life and its impact on health, culture, and social development. It also analyzes the development of the tourism sector in Uzbekistan in recent years based on presidential decrees, with examples and comparison to previous years.

Kalit soʻzlar: Turizm, sayohat, dam olish, madaniyat, iqtisodiyot, Prezident farmonlari, ichki va tashqi turizm.

Ключевые слова: Туризм, путешествия, отдых, культура, экономика, указы президента, внутренний и выездной туризм.

Keywords: tourism, travel, recreation, culture, economy, presidential decrees, domestic and foreign tourism.

Kirish: Hozirgi globallashuv davrida turizm nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki shaxsning jismoniy, ruhiy va maʼnaviy rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Insonlar kundalik mehnat va stress tufayli charchoqni his qilmoqda. Ana shunday vaziyatda turizm insonning hayot sifatini yaxshilash va dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi. Sayohat davomida inson yangi muhitda dam olib, tabiat qoʻynida va tarixiy maskanlarda oʻzini tetik his qiladi.

Oʻzbekistonda turizm sohasi mustaqillik yillaridan boshlab asta-sekin rivojlandi, ammo 2016-yildan keyin bu soha yangi bosqichga koʻtarildi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar turizmni davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylantirdi, natijada bir qator real islohotlar amalga oshdi.[1]

Turizm inson salomatligi uchun foydalidir. Sayohat davomida inson faol harakat qiladi, toza havodan bahramand boʻladi va stressdan xalos boʻladi. Masalan, togʻli hududlarga sayohat qilgan turistlar nafaqat jismoniy faollik bilan shugʻullanadi, balki ruhiy dam olishni ham oladi. Shu tariqa, turizm insonning umumiy farovonligini oshiradi.

Bundan tashqari, turizm inson dunyoqarashini kengaytiradi. Turli mamlakatlar va hududlarga sayohat qilgan inson boshqa xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini va





turmush tarzini o'rganadi. Bu esa insonda bag'rikenglik va ochiq fikrlilikni shakllantiradi.

Turizm madaniyatlararo almashinuvni kuchaytiradi. Tarixiy obidalar, muzeylar, milliy bayramlar va an'analar bilan tanishish insonning ma'naviy olamini boyitadi. Ayniqsa, yoshlar uchun turizm tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ularda vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantiradi. Masalan, Samarqand va Buxoro shaharlarida yangi mehmonxonalar ochildi, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish ishlari faollashdi. Shu bilan birga, xostellar va xizmat ko'rsatish maskanlari soni sezilarli darajada oshdi.

Turizm iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari bilan chambarchas bog'liq. Mehmonxona xo'jaligi, transport, savdo va gastronomik xizmatlar turizm orqali rivojlanadi. Masalan, 2023-yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda turizm sohasidan kelgan daromad 2,5 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa mamlakatning ichki yalpi mahsulotiga sezilarli hissa qo'shdi. Shu bilan birga, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik rivojlandi: xostellar, milliy taomlar restoranlari va hunarmandchilik buyumlari savdosi ortdi. Xorijiy turistlar oqimi oshgani sababli, 2023-yilda O'zbekistonda 50 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Turizm sohasining rivojlanishi kichik va o'rta biznes uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu biznes turlari mehmonxona, restoran, kafelar, ekskursiya xizmatlari va hunarmandchilik bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, sayyohlar ko'p keladigan hududlarda mahalliy oshxonalar milliy taomlar bilan xizmat ko'rsatadi va o'z daromadlarini oshiradi. Shuningdek, hunarmandlar va savdogarlar turistik yo'laklar bo'yicha an'anaviy buyumlar, suvenirlar va milliy kiyim-kechaklarni sotadi. O'zbekistonning Farg'ona vodiysida o'tkazilgan milliy taomlar festivallari misolida, mahalliy tadbirkorlar daromadi 30% ga oshgan. Bu esa hudud iqtisodiyotiga bevosita hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes yoshlarni ish bilan ta'minlaydi, mahalliy xizmat sifatini oshiradi va turizmni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shu yo'l bilan, turizm nafaqat dam olish va madaniyatni rivojlantirish vositasi, balki iqtisodiyotning mustahkam ustuni bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston turizmi so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Uni boshqa mamlakatlar bilan solishtirish orqali bu rivojlanish darajasini yaxshiroq tushunish mumkin. Masalan, O'zbekistonni Gruziya bilan solishtirsak:

O'zbekiston 2023-yilda 2,1 million xorijiy sayyohni qabul qilgan, Gruziya esa shu yil davomida 8,5 milliondan ortiq turistni jalb qilgan. Bu ko'rsatkich Gruziyaning uzoq yillik turizm tajribasiga ega ekanini ko'rsatadi, O'zbekiston esa yangi imkoniyatlar bilan tez rivojlanmoqda.

Turizm sohasidan tushgan daromadni solishtirsak, O'zbekiston 3,2 milliard dollar, Gruziya esa 4,5 milliard dollar daromad olgan. O'zbekiston asosan ichki turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratgan bo'lsa, Gruziya ko'proq xalqaro turistlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan.[5]

Turizm turlariga qarasak, O'zbekistonda tarixiy va madaniy turizm asosiy o'rin tutadi. Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi tarixiy yodgorliklar sayyohlarni





o'ziga jalb qiladi. Shuningdek, O'zbekistonda gastronomik va ekoturizm ham rivojlanmoqda. Gruziyada esa asosan tabiat turizmi, tog'li hududlar va vinoturizm (sharob festivallari) keng tarqalgan.

Infratuzilma jihatidan Gruziya uzoq yillar davomida turizmni rivojlantirgan: aeroportlar, mehmonxonalar va transport tizimi keng qamrovli. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda Prezident farmonlari orqali infratuzilma modernizatsiya qilinmoqda, yangi mehmonxonalar, ekskursiya yo'laklari va raqamli xizmatlar yaratilmoqda. O'zbekiston turizmi hali Gruziya darajasiga yetmagan, lekin so'nggi yillarda ichki turizmning o'sishi, tarixiy merosni restavratsiya qilish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali mamlakat sayyohlik bo'yicha jahon xaritasida o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyot va kichik biznes rivojlanishi ham tezlashmoqda, bu esa O'zbekistonni kelajakda turistlar uchun jozibador mamlakatga aylantiradi.[3]

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun bir nechta Prezident farmonlari qabul qilingan. Bu farmonlar turizm infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni rag'batlantirish va xizmat sifatini oshirishga qaratilgan. Masalan, 2021-yilda qabul qilingan PF-4960 farmoni turizm infratuzilmasini rivojlantirish va "Turizm innovatsiya markazlari"ni tashkil etishga qaratilgan edi. Ushbu markazlar orqali yosh tadbirkorlar va startaplar qo'llab-quvvatlandi. Natijada, 250 dan ortiq yangi turistik xizmatlar ishga tushirildi va 1200 dan ortiq yoshlar turizm bo'yicha malaka oshirdi. Bu farmon ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. So'ngra, 2023-yilda qabul qilingan PF-6022 farmoni raqamli turizm tizimini joriy etishga qaratildi. Farmon asosida onlayn bronlash tizimlari, QR kodli yo'riqnomalar va virtual ekskursiyalar yaratildi. Xorijiy sayyohlar uchun tarjima xizmatlari va onlayn ma'lumot tizimi joriy qilindi. Shu natijada, sayyohlar soni 38% ga oshdi va xizmat ko'rsatish tezligi ikki barobar yaxshilandi. Kichik va o'rta biznes uchun ham yangi imkoniyatlar yaratildi.

Qolaversa, 2020-yilda PF-5234 farmoni hududiy turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan edi. Toshkent viloyati va boshqa hududlarda yangi ekoturizm va agro-turizm yo'laklari ochildi. Shu bilan birga, hududiy turizmni rivojlantirish uchun moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu hududlarda ish o'rinlari yaratishga va mahalliy iqtisodiyotni jonlantirishga yordam berdi.

Oxirgi farmonlardan biri, 2022-yilda qabul qilingan PF-5897, tarixiy shaharlardagi obidalarni restavratsiya qilish va mehmonxona xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan edi.[2] Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida yangi mehmonxonalar ochildi, tarixiy yodgorliklar restavratsiya qilindi. Natijada sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratildi va hudud iqtisodiyoti rivojlantirildi. Shu tarzda Prezident farmonlari O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, ichki va tashqi sayyohlikni kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga katta hissa qo'shmoqda.

Xulosa: Turizm inson hayotida nafaqat dam olish vositasi, balki iqtisodiyot, madaniyat, sog'liq va jamiyat rivojida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston so'nggi





yillarda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Prezident farmonlari orqali infratuzilma modernizatsiya qilindi, raqamli xizmatlar joriy etildi, yoshlar va tadbirkorlar uchun imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes, hududiy turizm va madaniy merosni saqlash orqali mamlakat iqtisodiyoti jonlandi.

O'zbekiston turizmi hali Gruziya kabi rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetmagan, ammo ichki turizmning o'sishi, tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali mamlakat sayyohlik bo'yicha jahon xaritasida o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda.

Shu bilan birga, turizmning rivojlanishi ish o'rinlari yaratishga, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga va yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Kelajakda turizm O'zbekistonni nafaqat sayyohlar uchun jozibador mamlakatga aylantiradi, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5234-sonli farmoni (2020-yil).
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5897-sonli farmoni (2022-yil).
- 3.O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hisobotlari (2023-yil).
- 4.Turizm statistika ma'lumotlari, Jahon sayyohlik tashkiloti (2023-yil).
- 5.Turizm asoslari o'quv qo'llanma, Toshkent,2022-yil.





**Bugungi kunda ekologik muammolar global miqyosda insoniyat taraqqiyoti
va xavfsizligi jiddiy tahdid solmoqda .**

Obilqosimova Shabbona Azamiddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Turizm fakulteti, turizm va mehmondostlik
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Email.obilqosimovashabbona@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi davrda global muammo sifatida e'tirof etilayotgan ekologik muammolar, ularning atrof-muhit holatiga hamda insoniyat kelajagiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llari va barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari yoritilgan. Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari ekologik muammolarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, atrof-muhit, global muammolar, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar, ifloslanish, insoniyat kelajagi, ekologik xavfsizlik, muammolarni bartaraf etish, tadqiqot metodologiyasi, ekologik monitoring.

Abstract: This article analyzes environmental problems, which are recognized today as a global issue, and their negative impact on the state of the environment and the future of humanity. The study highlights the causes of these ecological problems, ways to address them, and measures to ensure sustainable development. The research employs scientific methods such as analysis and synthesis, induction and deduction, comparison, economic-statistical analysis, and other relevant approaches. The results of the study contribute to formulating scientific and practical recommendations for mitigating ecological problems and protecting the environment.

Keywords: Ecology, environment, global issues, sustainable development, climate change, natural resources, pollution, future of humanity, environmental security, problem mitigation, research methodology, ecological monitoring.

Аннотация: В данной статье анализируются экологические проблемы, которые в настоящее время признаны глобальными, а также их негативное влияние на состояние окружающей среды и будущее человечества. В исследовании рассматриваются причины этих экологических проблем, пути их решения и меры по обеспечению устойчивого развития. В работе использованы научные методы, такие как анализ и синтез, индукция и дедукция, сравнение, экономико-статистический анализ и другие соответствующие подходы. Результаты исследования способствуют формулированию научно-практических рекомендаций по снижению экологических проблем и охране окружающей среды.

Ключевые слова: Экология, окружающая среда, глобальные проблемы, устойчивое развитие, изменение климата, природные ресурсы,





загрязнение, будущее человечества, экологическая безопасность, снижение проблем, методология исследования, экологический мониторинг.

Kirish: Hozirgi kunda ekologiya yer yuzida global muammo sifatida e'tirof etilib, atrof-muhit holatining yildan-yilga yomonlashib borishi insoniyat kelajagiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida olimlar tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, hozirgi kungacha ekologik muammolarga to'liq va universal yechim topilmagan. Natijada, ekologik holat kundan-kunga yanada murakkablashib bormoqda.

Ekologiya — bu insoniyat yashab turgan tabiiy muhitning mavjudligini saqlab qolish hamda uni kelgusi avlodlarga sog'lom va barqaror holatda yetkazishni ta'minlashga qaratilgan fan va amaliy faoliyat sohasi hisoblanadi. Shu bois atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash hamda tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni cheklash va oldini olish dolzarb vazifa sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda nazariy va tahliliy yondashuvlar asosida ekologik muammolarning global miqyosdagi holati o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil, sintez, taqqoslash hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar ochiq manbalar, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng ko'lam olgan holda, dunyo mamlakatlarini ushbu masalani chuqurroq o'rganishga majbur qilmoqda. Jahon yovvoyi tabiat jamg'armasi (WWF), Global Footprint Network va Londonning Zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga qisqargan, shuningdek, "Tirik sayyora indeksi" 52 foizga tushgan. Shu jumladan, havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turlari 76 foizga, er usti va suvda kun kechiradiganlar soni esa 39 foizga kamaygan. Har yili 11 million gektar tropik o'rmonlar kesilib, o'rmonlarni tiklash ishlari bilan solishtirganda yo'qotishlar 10 barobar ko'p. Shuningdek, har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqishi dunyo okeanlaridagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.[1]

Global iqlim o'zgarishi dunyo miqyosida keng o'rganilmoqda. Bugungi kunda Yer yuzida global iqlim o'zgarishi, ya'ni atmosferaning o'rtacha haroratining oshishi kuzatilmoqda. So'nggi o'ttiz yil ichida sayyoramizdagi o'rtacha harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Shuningdek, yangi hasharet va zararkunandalarning turlari paydo bo'ldi, bu esa ekologik muhit va inson faoliyati uchun jiddiy tahdid hisoblanadi.

Shuning uchun tadqiqotda iqlim o'zgarishining asosiy sabablariga alohida e'tibor qaratildi. Boshqa ekologik muammolar bilan bir qatorda, bu jarayonning asosiy drayveri — insoniyatning tabiatdagi faoliyatidir. Ya'ni global isishga antropogen omillar, xususan inson faoliyati, bevosita sabab bo'layotgani ko'plab ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Yerdagi o'rtacha haroratning oshishi asosan insoniy faoliyat natijasidir. Bu jarayon XIX asrning oxirlaridan kuzatilgan va uning tezligi doimiy ravishda ortib bormoqda.





Biroq, iqlim o'zgarishini tabiiy omillarga ham bog'lash mumkin. Olimlarning fikriga ko'ra, issiqxona gazlarining emissiyasi global isishning asosiy sabablaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Insoniyat tomonidan qazib olinadigan ko'mir, neft va gaz yoqilg'ilarini iste'mol qilish, sanoat chiqindilari, tog'-kon sanoati, ko'mir bilan ishlaydigan elektr stansiyalari, transport chiqindilari, keng qamrovli qishloq xo'jaligi faoliyati, o'rmon yong'inlari va o'rmonlarning kesilishi issiqxona effektini kuchaytiradi. Gazlarning qizishi natijasida atmosferada hosil bo'ladigan issiqlik energiyasi sayyoramiz yuzasida haroratning ortishiga olib keladi.

1970 yildan 2019 yilgacha iqlim va ob-havo sharoitlari tufayli 11 mingdan ortiq tabiiy ofatlar ro'y berdi, ular har yili jahon iqtisodiyotiga taxminan 520 milliard dollar zarar yetkazmoqda. 2013-yilda "Haiyan" to'foni oqibatida bir million filippinlik boshpanasiz qoldi. Bangladeshdagi ishsizlik darajasi 2010 yilda Ailan tropik siklonidan so'ng 49% ga oshdi. 2005-yildagi "Stan" dovuli Gvatemalada bolalarning 7,3 foizini maktab o'rniga ishlashga majbur qildi. Global isish oziq-ovqat va suv xavfsizligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 500 million kishi tuproq eroziyasiga moyil hududlarda yashaydi. Ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning kamida 30% yo'qoladi yoki isrof qilinadi. Shu bilan birga, suv zaxiralari yil sayin kamayib bormoqda; suv nafaqat ichimlik suvi sifatida, balki qishloq xo'jaligini ta'minlash uchun ham yetarli emas.[2]

Bugungi kunda ekologik xavf global miqyosda keng tarqalgan bo'lib, insoniyatni tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhit bilan muvozanatni saqlash masalasida jiddiy choralar ko'rishga majbur qilmoqda. So'nggi 50 yil ichida sayyoramizdagi o'rtacha havo harorati taxminan 1°C ga oshdi, bu esa global isish jarayonining sezilarli darajada tezlashganini ko'rsatadi.

Hasharotlar va zararkunandalarning yangi turlari paydo bo'lib, ekologik tizimlarning barqarorligi xavf ostiga tushmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1970–2019 yillar davomida yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga kamaygan, shuningdek "Tirik sayyora indeksi" 52% ga tushgan (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turlari 76%, er usti va suvda yashaydiganlar 39%).

Har yili 11 million gektar tropik o'rmon kesilmoqda, o'rmonlarni tiklash ishlari esa yo'qotishlarga nisbatan 10 barobar kam. Shu bilan birga, har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanlaridagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Iqlim o'zgarishi insoniyat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, issiqxona gazlari emissiyasi, sanoat chiqindilari, transport, ko'mir bilan ishlaydigan elektr stansiyalari, keng qishloq xo'jaligi faoliyati va o'rmonlarning kesilishi global isishga asosiy sabablar sifatida ko'riladi.[4]

1970–2019 yillarda iqlim va ob-havo tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar soni 11 mingdan ortiq bo'lib, ular har yili 520 milliard dollardan ortiq zarar yetkazmoqda. Misol uchun: 2013-yilda "Haiyan" to'foni oqibatida 1 million





filippinlik boshpanasiz qoldi. Bangladeshda 2010-yilda Ailan sikloni sabab ishsizlik darajasi 49% ga oshdi. 2005-yildagi “Stan” dovuli Gvatemalada bolalarning 7,3% maktabga emas, ishga borishga majbur bo‘ldi. Global isish oziq-ovqat va suv xavfsizligiga ham jiddiy ta’sir qilmoqda: BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 500 million kishi tuproq eroziyasiga moyil hududlarda yashaydi. Ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning kamida 30% yo‘qoladi yoki isrof qilinadi. Suv zaxiralari yil sayin kamayib bormoqda, suv ichimlik va qishloq xo‘jaligi uchun yetarli emas.

Ushbu ma’lumotlar ekologik tizimlarning zaiflashayotganini, insoniyat faoliyatining iqlim o‘zgarishiga ta’sirini va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli choralar zarurligini ko‘rsatadi.[3]

Takliflar. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Ekologik xavflarni kamaytirish va global barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun mamlakatlararo koordinatsiyalangan siyosiy va ilmiy hamkorlikni mustahkamlash zarur. O‘rmonlarni saqlash va tiklash: Tropik va boshqa o‘rmon resurslarini kesishni cheklash, ularni tiklash bo‘yicha innovatsion va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, bioturfa turlarini himoya qilish tizimini kuchaytirish lozim. Atmosfera va karbonat angidridni nazorat qilish: Sanoat, transport va energetika sohalarida ekologik texnologiyalarni keng qo‘llash orqali global isish va okean sathining ko‘tarilishini kamaytirish.

Yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish: Biologik xilma-xillikni saqlash, turlarni himoya qilish va ularning tabiiy yashash hududlarini kengaytirish uchun ilmiy-asoslangan monitoring va konservatsiya dasturlarini rivojlantirish. Jamiyat ekologik ongini oshirish: Ekologik xavf, barqaror rivojlanish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha ta’lim, targ‘ibot va ilmiy-amaliy loyihalarni kengaytirish, shuningdek, insonning ekologik mas’uliyatini kuchaytirish.

Xulosa. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ekologik muammolar bugungi kunda nafaqat atrof-muhitning barqarorligini, balki insoniyatning global xavfsizligini ham jiddiy tahdid ostiga qo‘ymoqda. Yovvoyi hayvon va qushlar turlarining sezilarli darajada kamayishi, tropik o‘rmonlarning muntazam ravishda yo‘qolishi, shuningdek, atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidridning ortishi kabi jarayonlar insoniyat faoliyati va tabiiy tizimlar o‘rtasidagi muvozanatning barqaror buzilayotganini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, ekologik inqirozlar nafaqat hududiy, balki global xarakterga ega bo‘lib, ularni bartaraf etish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

- 1.<https://yuz.uz/uz/news/ilmiy--izlanishlar--global-ekologik-muammolar-yechimi>
- 2.<https://in-academy.uz/index.php>
- 3.<https://elibrary.sammu.uz/>
- 4.<https://www.lex.uz/docs/-6479134> PQ-171-coh 31.05.2023. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.





Fargʻona vodiysida oʻtish davri bosqichlarida sogʻliqni saqlash sohasining moddiy-texnik holati

Azimova Maftuna Muhammadaaminovna,

Qoʻqon universiteti oʻqituvchisi

maftunaazimova67@gmail.com, Tel: (88) 811-67-57

ORCID ID-0009-0000-8123-9862

Annotatsiya. Mazkur maqolada oʻtish davri bosqichlarida Fargʻona vodiysida tibbiyot sohasining moddiy-texnik holati yuzasidan fikrlar ilmiy asosda muhokama etilgan. Xususan, sovetlar hukumronligi yillarida aholi salomatligini muhofaza qilish ishlarining holati, tizimning moddiy-texnik bazasidagi muammo va kamchiliklar, hamda sohada faoliyat olib borgan shifokorlarning maʼlumoti toʻgʻrisidagi masalalar ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: Salomatlik, tibbiy xizmat, prezident farmonlari, qonun, normativ hujjatlar, turmush tarzi, sanitariya nazorati, tibbiyot muassasasi, tibbiy xizmat, amaliyotchi shifokor.

Kirish. Mustaqillik yillariga kelib sogʻliqni saqlash tizimiga alohida eʼtibor qaratildi. Ammo moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari chuqur tahlil etilsa, xato va kamchiliklar mavjudligi yaqqol namoyon boʻladi. Sovet davrida sogʻliqni saqlash sohasi istiqbolini belgilashda Oʻzbekistonning tabiiy sharoiti va iqlimi xususiyatlari hisobga olinmadi. Sogʻliqni saqlash sohasini rivojlantirishga passiv yondashilib, ekstentiv tizim faoliyatini baholashning asosiy mezonlari – davolash oʻrinlari, tibbiyot xodimlari, shifoxonalar, poliklinikalar va ambulatoriyalar sonining koʻpayishi bilan oʻlchandi. Sifatga zarar boʻlsada, miqdor koʻrsatkichlari ketidan quvishga katta eʼtibor qaratildi. Zoʻrma-zoʻraki ravishda davolash muassasalari sonini koʻpaytirishga harakat qilish tufayli shifoxona va boshqa davolash maskanlari qulaylikka ega boʻlmagan, moslashtirilmagan binolarda joylashtirildi. Davlat tomonidan belgilangan rejalarni oshirib bajarish uchun “qushib yozish” yoʻlidan borilib, yotoqxonalar, uy-joy binolarida kasalxonalar tashkil etildi. Shifoxonalarning moslashtirilgan binolarda joylashtirilganligi sababli ularda zamonaviy tibbiy texnika va apparatlar qoʻllash imkoniyati cheklandi. Sogʻliqni saqlash ishiga ajratilgan mablagʻlar koʻp hollarda toʻla obarcha sohalar jar yoqasiga kelib qolgan edi. Ittifoq aholisiga nisbatan kasallanish yuqori boʻlgan respublika aholisiga jami 71 ming 100 nafar shifokorlarlar xizmat koʻrsatgan. Istiqbol arafasida mamlakat aholisining 8 millionga yaqini xastaligi tufayli tibbiy muassasalarga murojaat etib turgan. Shulardan, qariyb, 240 ming nafari yuqumli kasalliklar, jumladan, 120 ming nafari gepatit bilan ogʻrigan boʻlsa, ularning 70 foizini bolalar tashkil qilar edi.[1,233] Bu raqamlar respublikada sohaning infratuzilmasi har jihatdan yetarlicha tashkil etib borilmaganligini koʻrsatar edi.

1991-yilda mustaqillikka erishgandan soʻng, tibbiyot tizimi sovet davridan qolgan moddiy-texnik baza bilan ishladi: koʻplab shifoxonalar va poliklinikalar eski binolarda, yetarli diagnostika uskunalari va zamonaviy asbob-uskunalarsiz qolgan.

Zarur kapital investitsiyalar yetishmasligi va eskirgan tibbiy jihozlar holati xizmat sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatgan. Ayniqsa qishloq hududlarda infratuzilma sust va noteng taqsimlangan edi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillarida sogʻliqni saqlash moddiy-texnik bazasi eskirgan, investitsiya darajasi past va infratuzilma muammolari mavjud edi.

Xususan, 1980-yil oxirlarida Namangan viloyat aholisi soniga nisbatan shifoxonalardagi oʻrinlar butun Ittifoqdagi koʻrsatkichlardan kam edi. Agar Respublikada 10000 nafar aholiga 101 ta oʻrin toʻgʻri kelgan boʻlsa, viloyatda ushbu raqam 88,3 tani tashkil etgan. Bunday koʻrsatkichlar Uychi tumanida 64,3 ta, Chustda esa 56 tani tashkil etardi. Kasalxonalardagi oʻrinlar yangi qurilgan shifoxonalar hisobiga atigi 35% ga toʻgʻri kelgan. Natijada, har bir bemorga 6,5 kvadrat metr joy boʻlishi oʻrniga 2–2,5 kvadrat metrdan joy toʻgʻri kelgan.[2,8]

Respublikaning aholi soni koʻp boʻlgan Fargʻona va Andijon viloyatlaridagi ahvol bundanda ogʻirroq edi. Respublika boʻyicha kolxozlar hisobidan 325 oʻrinli shifoxonalar va smenada 1





ming 238 qabulga mo'ljallangan poliklinikalar bunyod etildi. Andijon viloyati Qorako'l kolxozi qoshidagi shifoxona va Farg'ona viloyati Toshloq qishlog'idagi reabilitatsiya binosi shular jumlasidandir.[3,55]

Respublika 1995-yillarga nisbatan iqtisodiy jihatdan siljish holatiga kelganidan keyin eng avvalo aholi salomatligini muhofaza qilishga e'tibor qaratildi. Xususan birinchi navbatta respublikada mavjud shifoxonalarning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha ishlar olib borildi.

Jumladan, Andijon viloyatida mustaqillikning ilk yillaridan aholi salomatligini saqlashda qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Olimlarimiz e'tirof etganlaridek, xalq salomatligini saqlashda tibbiyotning roli 8–12 foizni tashkil qilib, 88–92 foizi ijtimoiy-maishiy ta'minot qay darajadali, irsiyat (odamning nasl-nasabi), aholini yashash sharoiti, turmush tarzi, atrof muhitning holati, ovqatlanish, madaniyatning rivojlanishi kabi muammolarning qay darajadali bog'liqdir. Qolaversa, xo'jalik, tashkilot, muassasa va korxonalarining rahbarlari fuqarolar sog'lom bo'lishsa, mehnat unumdorligi oshishiga, belgilangan rejalar bajarilishi mumkinligini tushunib yetdilar. Shu sababli xalq salomatligini saqlashda faqat tibbiyot xodimlari bosh qotiribgina qolmay, barcha tashkilot, xo'jalik, korxonalar rahbarlari ishchi-xizmatchilarning salomatligini saqlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirili.

Andijon viloyatida 1995-1998 yillar mobaynida 26 ta zamonaviy davoxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Ayniqsa, Paxtaobod, Qo'rg'ontepa, Bo'z va Andijon tuman hokimliklari, Andijon to'qimachilik kombinati, Xo'jaobod tumanidagi Madiyev nomli bog'dorchilik davlat xo'jaligi, Qo'rg'ontepa paxta tozalash zavodi, viloyat suv xo'jaligi boshqarmasi va boshqa qator korxona hamda qurilish tashkilotlari, avtotransport korxonalari, jamoa xo'jaliklari rahbarlari o'z fuqarolarining dam olishi, sog'liklarini yaxshilashlari uchun davoxona va sanatoriy-profilaktoriylar qurdilar, borlari ta'mirlandi.

Marhamat tumanidagi 70 o'rinli "Marhamat" sanatoriy-profilaktoriyasi, Qo'rg'ontepa tumanidagi 600 qabulga mo'ljallangan shifoxona, Izboskan tumanidagi sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, Xonobodagi bir smenada 410 qatnovga mo'ljallangan poliklinika, Andijon shahrida qad rostlagan stomatologiya poliklinikasi shular jumlasidandir.

Shuningdek, Paxtaobod tumanida 150 o'rinli markaziy shifoxona, Izboskan tumanida 150 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Marhamat va Komsomolobod tumanlarida ona va tug'ruq uylari, Andijon tumani markaziy shifoxonasi hamda Jalolquduq tumanida 60 o'rinli shifoxona qurildi. Viloyatdagi 133 qishloq vrachlik ambulatoriyasining ko'pchiligi, Avvalyanov tumanidagi 14 ta ana shuday shifoxonalardan 11 tasi Paxtaobod tumanidagi kasalliklarni davolash uchun zarur barcha qulayliklarga ega binolarda faoliyat ko'rsatdi. Bu davolash muassasalarida har bir bemorga mo'ljallangan o'rinlarni ikki barobarga kengaytirish imkonini berdi.

Agar 1995-yillarda bir o'ringa 2–3 kvadrat metr joy to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilga kelib, 7–8 kvadrat metr to'g'ri kelmoqda. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug'ruq yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish, homilador onalar va bir yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limining oldini olish, sog'lom avlod uchun kurash bugunning bosh vazifasi hisoblanadi. Respublika Sog'liqni saqlash vazirligining bu boradagi "Kompleks dasturi" asosida viloyat sog'liqni saqlash bo'limining tadbirlarini ishlab chiqdik.[4,253]

Ana shu dastur asosida tug'ruq yoshidagi 447 ming nafar ayolning barchasi dispanserlik ko'rigidan o'tkazildi. Ularning ko'pchiligida ginekologik dardlardan tashqari kamqonlik, buyrak va yurak hamda boshqa xastaliklar borligi aniqlandi. Ko'rik natijalariga ko'ra xotin-qizlar maslahatxonalari faoliyatini kengaytirish, lozim bo'lganda homilador ayolni ginekolog va pediatrdan tashqari boshqa mutaxassislar ishtirokida tibbiy ko'rikdan o'tkazish belgilandi.

Заключение. В последние годы диагностика и лечение гепатита С претерпели революционные изменения: молекулярные методы позволяют точно определять вирусную нагрузку, а прямодействующие антивирусные препараты обеспечили беспрецедентные уровни излечиваемости с





минимальными побочными эффектами. Несмотря на успехи, остаются важные задачи: отсутствие вакцины и необходимость профилактических мер, особенно в группах риска.[12,13]

Список литературы (13 источников):

1. World Health Organization. Guidelines for the care and treatment of persons diagnosed with chronic hepatitis C virus infection. – Geneva:WHO, 2018. –104 p.
2. European Association for the Study of the Liver (EASL). EASL recommendations on treatment of hepatitis C 2020 // Journal of Hepatology. – 2020. – Vol. 73, №5. – P. 1170–1218.
3. Ghany M.G., Morgan T.R. Hepatitis C guidance 2019 update: AASLD-IDSA recommendations for testing, managing, and treating hepatitis C virus infection // Hepatology. – 2020. – Vol. 71, №2. – P. 686–721.
4. Pawlotsky J.M. Hepatitis C virus resistance to direct-acting antiviral drugs in interferon-free regimens // Gastroenterology. – 2016. – Vol. 151, №1. – P. 70–86.
5. Feld J.J., Jacobson I.M., Hézode C., et al. Sofosbuvir and velpatasvir for HCV genotype 1, 2, 4, 5, and 6 infection // New England Journal of Medicine. – 2015. – Vol. 373. – P. 2599–2607.
6. Asselah T., Marcellin P., Schinazi R.F. Treatment of hepatitis C virus infection with direct-acting antiviral agents // Liver International. – 2018. – Vol. 38 (Suppl. 1). – P. 7–13.
7. Rockstroh J.K., Feld J.J., Chevaliez S., et al. Glecaprevir/pibrentasvir for 8 or 12 weeks in HCV genotype 1–6 infection // The Lancet. – 2017. – Vol. 390, №10091. – P. 59–68.
8. Castera L., Forns X., Alberti A. Non-invasive evaluation of liver fibrosis using transient elastography // Journal of Hepatology. – 2008. – Vol. 48, №5. – P. 835–847.
9. Alter M.J. Epidemiology of hepatitis C virus infection // World Journal of Gastroenterology. – 2007. – Vol. 13, №17. – P. 2436–2441.
10. Lavanchy D. The global burden of hepatitis C // Liver International. – 2009. – Vol. 29 (Suppl. 1). – P. 74–81.
11. Ивашкин В.Т., Маев И.В., Ющук Н.Д. Хронический вирусный гепатит С: клинические рекомендации // Российский журнал гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. – 2021. – Т. 31, №2. – С. 7–45.
12. Шахгильдян И.В., Михайлов М.И. Вирусный гепатит С: эпидемиология, диагностика, лечение // Инфекционные болезни. – 2019. – Т. 17, №2. – С. 5–14.
13. Арипов А.Н., Худайберганов Б.Б. Современные подходы к диагностике и лечению вирусного гепатита С // Медицинский журнал Узбекистана. – 2020. – №4. – С. 38–43.





Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va tabiiy fanlarning oʻrni

Ibragimova Maftuna Baxtiyorjon qizi

“University of Economics and pedagogy” NOTM Ijtimoiy – gumanitar fanlar
kafedrası oʻqituvchisi

Xasanova Dilorom Shuxratbek qizi

“University of Economics and pedagogy” NOTM 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasi, uning asosiy maqsadlari va tamoyillari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, tabiiy fanlarning ushbu jarayondagi oʻrni, ularning inson faoliyati va atrof-muhit oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada ilm-fan va taʼlim tizimining barqaror rivojlanishga qoʻshayotgan hissasi ham yoritilgan.

Kalit soʻzlar: barqaror rivojlanish, tabiiy fanlar, ekologiya, iqtisodiyot, taʼlim, innovatsiya.

Kirish. Barqaror rivojlanish — bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tizimlarning oʻzaro uygʻunlikda rivojlanishini taʼminlashga qaratilgan konsepsiyadir. Bugungi globallashuv sharoitida insoniyat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun qulay hayot sharoitini yaratish zaruratiga duch kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tabiiy fanlarning rivoji va ularni amaliyotga tatbiq etish barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biridir.

Asosiy qism. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchta asosiy yoʻnalish — iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik tamoyillariga tayanadi. Tabiiy fanlar ushbu yoʻnalishlarning har birida muhim rol oʻynaydi. Masalan, ekologiya, kimyo, biologiya va geografiya fanlari orqali atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi. Fizika va muhandislik fanlari esa energiya manbalarini tejash, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish texnologiyalarini yaratishda asosiy rolga ega.

Tabiiy fanlar nafaqat ekologik muammolarni hal etishda, balki iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini taʼminlashda ham bevosita ishtirok etadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida yangi texnologiyalar, resurslarni tejoyvchi ishlab chiqarish usullari va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Taʼlim tizimida tabiiy fanlarga eʼtibor kuchaytirilishi yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantiradi. Bu esa barqaror rivojlanish gʻoyalarining keng joriy etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilm-fanning iqtisodiyot va siyosat bilan integratsiyasi barqarorlikni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyatning hozirgi va kelajak avlodlari uchun qulay hayot sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi. Bu jarayonda tabiiy fanlarning oʻrni beqiyosdir. Ular yordamida tabiat va jamiyat oʻrtasidagi muvozanatni saqlash, ekologik xavfsizlikni taʼminlash hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, tabiiy fanlarni rivojlantirish va ularni taʼlim hamda ishlab chiqarish jarayonlariga keng tatbiq etish barqaror kelajakning garovidir.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barqaror rivojlanish maqsadlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil.
2. N.M. Norqulova, "Ekologiya va barqaror rivojlanish asoslari", Toshkent, 2021.
3. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) hujjati, 2015-yil.
4. A. Karimov, "Tabiiy fanlar va ularning jamiyatdagi roli", Toshkent, 2020.





Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda markaziy osiyo mutafakkirlari ilmiy merosining ahamiyati

Temirova Mashhura Muhammadaminova

Qo'qon davlat universiteti. dotsenti. (PhD)

Tel: (91) 286-90-15, Email: mashhura5555@gmail.com

ORCID:0009-0008-8741-9168

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining globallashuv davrida ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, shuningdek, mutafakkirlarning ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullarining bugungi kundagi ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, odob, barkamol avlod, insonparvarlik, yosh avlod, ma'aniv-ma'rifiy meros, falsafiy qarashlar, ezgu g'oyalar.

Ma'lumki, huquqiy demokratik davlat taraqqiyotining rivoji o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiya darjasiga bog'liqdir. Bunga erishish uchun esa avvalo jamiyat a'zolarining siyosiy, ijtimoiy, huquqiy saviyasini o'stirish kerak. Har bir fuqaro har bir inson o'z haquhuqlarini yaxshi blishi va himoya qila olishi zarur. Zamon talablaridan kelib chiqqan holda fuqarolarning huquqiy madaniyati, ongi va bilimlarini yanada oshirish asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Hammamizning oldimizda turgan muhim masala bu voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston voyaga yetmaganlar o'rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda. Xususan, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"lgi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunga muvofiq voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida ota ona yoki ota-onaga o'rnini bosuvchi shaxslarning ishtiroki, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyati, ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari vakolatlari belgilab berilgan.

"Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasining Qonuni 6 ta bob va 36 ta moddani o'z ichiga olishi, Qonunning 1-moddasiga muvofiq, qonunning maqsadi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratligi, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida o'qiyotgan voyaga yetmaganlarning o'qish vaqtida restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar,





kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarda voyaga yetmaganlarni saqlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish sharoitlarini nazorat qilish vazifalari, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarining, shuningdek, voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa muassasalarning faoliyatini takomillashtirishga doir choratadbirlarni amalga oshirilishi hamda ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydi hamda ularning hisobini yuritish, ularning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olishiga doir choratadbirlarni ko'rish choralari belgilandi.

Ma'lumki, ayni paytda ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan shaxslar tomonidan g'ayriijtimoiy yoki g'ayriqonuniy qilmish sodir etilishi kundalik hayotimizda tez-tez uchraydigan holatdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shaxsning jamiyatdagi xilof xususiyatlari u jinoyat sodir etish paytida birdan paydo bo'lib qolmay, balki bundan ancha oldin ham shakllangan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, voyaga yetmagan o'smirlarning jabrlanuvchi bo'lib qolishlariga ijtimoiy muhit o'z ta'sirini o'tkazib, shaxsning xulqida jamiyatga xilof xususiyatlarning shakllanishi ko'proq oilada paydo bo'ladi. Chunki ayni oila insonni axloqiy shakllanishining birinchi va asosiy joyi hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan oila a'zolari tomonidan zo'ravonlik ishlatish, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va jinoyatchiligi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuningdek, bizningcha, ularning turli jinoyatlardan jabrlanishiga ham sabab bo'ladi. Albatta, oila inson kamolotining eng muhim beshigidir. Insonning bolalik va o'smirlilik davri esa uning shakllanishida hal qiluvchi davr bo'lib, bu paytda shaxsni oiladan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda aytganda, voyaga yetmaganlarning turli jinoyatlarida, jumladan, jinsiy jinoyatlarni sodir etishida ham oilaning axloqiy sifatleri o'z ta'sirini o'tkazadi. Huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va omillar muammosi har qanday kriminologik tadqiqotlarda u yoki bu tarzda ko'rib chiqiladi. Chunki u kriminologiyani muhim muammolaridan biridir. Uni ilmiy o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Bugun oldimizga turgan o'ta muhim vazifalardan yana biri o'z fikri, dunyokarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi avlod tarbiyasidir. O'zbekiston mustakillikka erishgan dastlabki kunlardanok yangi tarixiy sharoitlarda o'zgarib borayotgan jamiyatga munosib har tomonlama yetuk va barkamol yoshlarni tarbiyalash kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri sifatida belgilandi. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaxo merosi,





yengilmas sarkarda va arboblarmizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga aloxida e'tibor karatishimiz kerak.

Istiqlol yillarida Vatanimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida o'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviy hayotni yuksaltirishda hukumatimiz tomonidan uzoqni mo'ljallab ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk ajdodlarimizning hayoti va bebaho me'rosini o'rganish, qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasida ilkan ishlar amalga oshirildi. O'tmish tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda Turon, o'rta asrlarda Turkiston, Movarounnahr deb yuritilgan bizning zamin azaldan sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, 9-12 asrlardagi madaniy yuksalish Sharq uyg'onish davri – Sharq renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida xalifa Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bag'dodda tashkil etilgan "Baytul hikma" alohida o'rin tutgan. "Baytul hikma" me'rosini o'rganganda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (786-850) nomi birinchilar qatorida tilga olinadi. Xalifalik akademiasining mudiri bo'lgan al-Xorazmiy o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo'lib asoslab berdi va amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astranomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi. Bag'dod akademiasining yana bir Movarounnahrlik namoyondasi Ahmad Farg'oni (797-865) o'zining "Astranomiya asoslari" deb nomlangan fundamental asrada olamning tuzilishi, yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishiga ega ekanligi xususidagi dalillari keyinchalik buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yillar o'tishi nilan yana ilm-fan va madaniyat o'chog'i Bag'doddan Movarounnahr ga ko'chdi. 1004-yilda xorazmshoh Ali ibn Ma'mun tomonidan Gurganchda akademiya tashkil etiladi. Xorazm Ma'mun akademiasini"ning asosini Abu Nasr ibn Iroq (10 a-1034), Abdulhayr ibn Hammor (991-1048), Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi allomalar tashkil etishgan Ma'mun akademiasida to'plangan olimlarning to'liq ro'yxati bizgacha yetib kelmagan. Lekin tarxichi Abu Mansur as-Salibiy (961-1038) ning yozishicha, Gurganchda to'plangan faqat arabiy navis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan. Yuqorida biz tilga olgan har bir mutafakkirning qoldirgan ilmiy me'rosi o'sib kelayotgan yosh avlodning kamol topishi uchun munosib o'rin egallaydi. Mutafakkirlarimiz bola tarbiyasi va uning kamoloti to'g'risida o'z asarlarida to'xtalib, yoshlarni odob-axloqi, jismoniy barkamolligi, aqlan yetuk, mehnatsevarligi va vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelgan. Xususan, bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevarlik ko'nikma va malakalarini shakllantirib, barcha tarbiya shahobchalarini tarkib toptirib borishning muhim omili ekanligi ta'kidlab kelingan. Ular mehnatni yuksak





baholab, kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muomala va munosabatlari ham mehnat orqali yuzga keladi deydi. Chunki mehnat qilgan kishi o'zgalar mehnatini qadrlay oladi va to'g'ri munosabatda bo'ladi deb hisoblashgan. Dangasa ishyoqmas kishilar esa o'zgalar mehnatini qadrlay olmaydi, hatto ularning ustidan kuladi deb uqtiradilar. Shuning uchun bunday kishilarni tarbiyalash kerakligini aytadilar. Bundan tashqari Markaziy Osiyoning eng ko'zga ko'ringan mutafakkiri Abu Nasr Farobiy ham ijodiy faoliyatida barkamol avlod tarbiyasi uchun alohida me'ros qoldirgan. Farobiy jamiyatda yashayotgan har bir kishini yoshligidan boshlab biror kasbni o'rganish uchun harakat qilishi va kelajakda shu kasb orqali jamiyatga foyda keltiri kerak, deb biladi. Har bir kasbni egallash jarayonida muayyan harakatlar, takrorlash, mashq qilish yo'li bilan ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini aytib o'tgan. Hattoki, o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida "Axloqiy fazilatlar va razilliklar, axloqiy harakatlarni, ishlarning bir necha takrorlanishida va uzoq davom etish jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi. Agar qilinayotgan ish xayrli bo'lsa, undan fazilat kelib chiqadi, agar yomon bo'lsa undan razillik kelib chiqadi",- deb ta'kidlagan. Abu Nasr Farobiy bolalarni yoshligidan boshlab mehnat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda o'ziga yoqqan ishiga mashg'ul bo'lib asta-sekin o'zi qiziqqan biron bir kasbni egallashi zarurligi hamda barcha hunarlarni bir to'la egallab bo'lmasligini ofodalab, shunday deydi: "Har bir kishiga birlashtirilgan ma'lum bir ish bo'lishi kerak, toki u kishi o'ziga birlashtirilgan ishni kechiktirmasdan o'z vaqtida bajarsin". Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim berish xech qachon bir vaqtning o'zida yuzaga kelmaydi. Balki, ularni kelib chiqishining haqiqiy manbai, keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zarurat natijasida vujudga keladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy me'rosini yaratib, takomillashtirib yoshlarni insonparvarlik, mehnatsevarlik va umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Bu fikrlarimizga aynan xos bo'lgan buyuk mutafakkir olim Burxoniddiy Marg'inoniydir. Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida imon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari bugungi kundagi barkamol avlod uchun har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda islom ta'limotining yirik namoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qoldirgan ko'plab asarlarida, jumladan, "Al-jome as-sahih" kitobida yoshlarni insonparvarlik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rin egallaydi. Uning ijodiy faoliyatida va qoldirgan ilmiy me'roslarida ta'lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ularni to'g'ri foydalanish – ta'lim jarayonida barkamol avlodga qo'llash o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo





mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarni pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari mutafakkir-olimlarning ilmiy me'rosi haqiqatdan ham olamshumul. Bu jumlamizga misol qilib oladigan bo'lsak, arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) tarixda birinchi bo'lib ko'p tilli lug'at - arabcha-forscha-turkiy lug'atni tuzgan edi. Bundan tashqari biz yuqorida ta'kidlagan buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy (873-950) jahon tarixida birinchi bo'lib nota yaratgan. U ixtiro qilgan cholg'u asbobi - qonun hamon sozandalarimiz qo'lidan tushmaydi. Beruniy zamondoshi, Foroblik Javhariy (940-1008) o'zi yasagan qanotlar bilan uchish mumkinligini Leonardda Vinchidan 500 yil odin tajribada sinab ko'rgan.

Yuqorida keltirilgan ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etgadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sharqdagi uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zaryr deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Nega aynan Movarounnahrda chiqqan mutafakkirlar Bag'dod Akademiyasida yuksak sharaf va mavqega sazovor bo'lganlar? Nega butun bir 11 asrni g'arb olimlari "Beruniy asri" deya e'tirof etganlar? Nega dunyoning nurli nuqtalaridamasalan, Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniy kabi vatandoshlarimizga haykallar o'rnatilgan? Chunki, bizning birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktab, ma'daniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak. Darhaqiqat Vatanimiz azaldan buyuk allomalarni, mard va jasur Vatan himoyachilarini, maxsus lashkarboshi va buyuk davlat arboblarni yetishtirib bergan muqaddas yurt. Bundan tashqari Prezidentimiz tashabbusi bilan Markaziy Osiyo olim va mutafakkirlarining abadiy tarixiy me'rosini chuqur o'rganish va anglash, mamlakat va jahon jamoatchiligini o'zbek mutafakkirlarining aniq, tabiiy fanlar va islom ilmlari rivojiga qo'shgan hissasi bilan tanishtirish, ilmiy markazlar va dunyoning yetakchi olimlarini ularning ishlari va kashfiyotlarini har tomonlama o'rganishga jalb etish, ushbu beqiyos intellektual boylikni ko'z qorachig'idek asrash va ommalashtirish maqsadida, 2014-yil 14-15-may kunlari Samarqand shahrida "O'rta asrlar Shaqr allomalari va mutafakkirlarining tarixiy me'rosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiayti" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Unda ellika yaqin mamlakatlardan tashrif buyurgan





vakillar o'zlari qiziqtirgan savollarga javob olishdi. Bundan tashqari, konferensiyada mutafakkir olimlarning ilmiy faoliyati tahlilga bag'ishlangan mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi tadqiqotchilarning maruzalarida Markaziy Osiyoda 9-12 va 14-15 asrlarda ro'y bergan ilmiy madaniy uyg'onishning turli jihatlari keng qamrovli yoritilib berilgan. Bu konferensiyada ko'rinib turibdiki, barkamol avlod tarbiyasi samarali amalga oshirishda bizda [2] ma'naviy meros yetarli. Bu boy merosdan Vatanimiz ravnaqi yo'lida oqilona va samarali foydalanish sizni bizning vazifamiz va burchimizdir. Zero Vatanaga, millatga muhabbat tuyg'usi eng muqaddas, eng mo'tabar tuyg'udir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, buyuk mutafakkirlarimizning mehant tarbiyasi xususidagi fikrlari bugungi kundan ham ahamiyat kasb etib, bolalarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Serqirra olim Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-hushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir" [3]. Shu sababli mehnat ta'lim va tarbiyasi yuqori o'ringa qo'yish lozim oqibatda shaxsga qo'lga kiritilgan mehnat muvaffaqiyatdan quvonish, o'z qadr-qimmatini anglash hamda o'z mehnatidan g'ururlanish tuyg'usi qaror topsin.

Foyalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
3. Abdulla Avloniy. Tanlanga asarlar. 2-jild. "Turkiy guliston yoxud axloq", - T.; Ma'naviyat, 2006.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари тўғрисида»ги 1993 йил 2 сентябрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши ахборотномаси. – 1993. – № 9. – 56-м.
5. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг
6. ахборотномаси. – 1997. – № 11–12. – 295 -м.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги 1997 йил
8. 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 9. – 225-м.
9. Ўзбекистон Республикасининг «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари
10. тўғрисида»ги 2008 йил 7 январь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий
11. Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. – 2008. – № 1. – 1-м.
12. Ўзбекистон Республикасининг «Одам савдосига қарши курашиш
13. тўғрисида»ги 2008 йил 17 апрель қонуни // Ўзбекистон Республикаси
14. Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. – 2008. – № 4. – 190-м.





Xurshid davron ijodida tarix mavzusi va zamonaviylik

Mahmudova Sevaraxon Islomxon qizi

Qo‘qon davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti 1-bosqich magistranti
mahmudovasevaraxon03@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola O‘zbekiston xalq shoiri, dramaturg va nosir Xurshid Davron ijodidagi tarixiy xotiraning zamonaviy poetik tafakkur bilan o‘zaro uyg‘unligini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Adib o‘z asarlarida o‘tmishdagi ulug‘ siymolar, tarixiy voqealar va milliy qadriyatlarga murojaat etar ekan, ularni bugungi kun nuqtai nazaridan chuqur falsafiy mulohazalar bilan boyitadi. Tadqiqotda shoirning lirik va epik asarlaridagi xronotop tizimi, tarixiy fakt va badiiy to‘qima mutanosibligi, qahramonlarning ruhiy kechinmalari zamonaviy insonning iztirob va orzulari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Maqolada Xurshid Davron ijodining o‘zbek adabiyoti va milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xurshid Davron, tarixiy xotira, zamonaviy tafakkur, poetik tafakkur, xronotop, tarixiy qissa, lirika, milliy o‘zlik, badiiy to‘qima, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek.

KIRISH. O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron XX asr oxiri – XXI asr boshlari o‘zbek adabiyotining yorqin va betakror namoyandalaridan biridir. Uning serqirra ijodi nafaqat she‘riyat va nasr janrlarida, balki dramaturgiya va publitsistikada ham o‘zining salmoqli o‘rniga ega. Ijodkor asarlarini an‘anaviy tarixnavislik yoki xronologik hikoyachilikdan farqli o‘laroq, o‘tmishni bugungi kunning falsafiy va ma‘naviy ehtiyojlari bilan bog‘laydi. Adib buyuk ajdodlarimiz – Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Shayx Najmiddin Kubro, Boburshoh kabi siymolarning hayotini shunchaki tasvirlamaydi, balki ularning kechinmalari, ziddiyatli qarorlari va ulug‘vor g‘oyalari orqali zamonaviy inson ruhiyatidagi savollarga javob izlaydi.

Xurshid Davron ijodida tarix mavzusi bugungi va kelajak uchun doimiy o‘zlikni anglash manbai, insoniyatning doimiy ma‘naviy izlanishlari maydonidir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Xurshid Davron ijodiy merosida tarixiy xotira va zamonaviy tafakkurning qaysi badiiy vositalar va g‘oyaviy yo‘nalishlarda uyg‘unlashganini atroflicha tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Xurshid Davron ijodi, ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng adabiyotshunoslar, tanqidchilar va yozuvchilarning diqqat markazida bo‘ldi. Uning asarlarining o‘zbek adabiyotida yangi lirizm, falsafiy mulohazalar va tarixiy xotira uyg‘unligi bilan ajralib turishi ko‘plab tadqiqotlarga mavzu bo‘lgan.

Adabiyotshunos olimi Z. I. Usmanova o‘zining monografiyasida ("Xurshid Davron ijodida tarixiy fakt va badiiy to‘qima uyg‘unligi", 2024) adibning tarixiy asarlaridagi fakt va badiiy to‘qima munosabati, xronotop tizimining ahamiyati xususida chuqur tahlil yuritgan. Uning xulosalariga ko‘ra, shoir asarlarida "yo‘l va safar xronotopi yetakchilik qiladi", bu esa qahramonlarning ruhiy o‘rishini va tarixiy makonning jonlanishini ta‘minlaydi.





Murod Muhammad Do'st, Tohir Malik, Qodir Mirmuhammadov kabi yozuvchi va tanqidchilar Xurshid Davron ijodidagi zamonaviy ruh, sog'inch va poetik tafakkur uyg'unligiga e'tibor qaratib, uning she'riyatidagi ko'proq tasviriylikka intilish, rangtasvir va kino san'ati xususiyatlari bilan uyg'unligini ta'kidlaganlar.

Z. Normatova esa shoir she'riy olamini "noaniq, ammo yurakni tortuvchi sokinlik" deb ta'riflaydi, bu holatda chuqur iztirob va hayotiy falsafaning timsolini ko'radi.

Umuman olganda, adabiyotshunoslikda Xurshid Davron ijodi mustaqillik davri adabiyotining eng yorqin sahifalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, tarixiy xotira va zamonaviy tafakkurning o'zaro dialektik uyg'unligi, ularning badiiy obrazlar tizimidagi funksiyasi chuqur va tizimli tahlilga muhtoj.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llaniladi:

Qiyosiy-tarixiy tahlil: Xurshid Davronning o'tmishga oid asarlaridagi voqea va siymolarni tarixiy manbalar va an'anaviy talqinlar bilan qiyoslash, shu orqali adibning o'ziga xos zamonaviy tafakkurini aniqlash.

Strukturaviy-poetik tahlil: Shoir she'riyati va nasriy asarlaridagi badiiy vositalar (tashbeh, metafora, ramz) hamda xronotop (makon va zamon) tizimi tahlili, bu orqali tarixiy xotiraning lirik-falsafiy ifodasini ochib berish.

Falsafiy-g'oyaviy yondashuv: Asarlardagi asosiy g'oyalar, ma'naviy izlanishlar va insoniy qadriyatlar tahlili, ularni zamonaviy milliy o'zlikni anglash konsepsiyasi bilan bog'lash.

Bu metodlar majmui Xurshid Davron ijodidagi murakkab va serqatlam uyg'unlikni chuqur tahlil qilish, uning badiiy-falsafiy mohiyatini ochish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Xurshid Davron ijodida tarixiy xotira va zamonaviy tafakkur uyg'unligi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Tarixiy shaxsga zamonaviy-psixologik yondashuv: Adib Amir Temur ("Sohibqiron nabirasi") yoki Najmiddin Kubro ("Shahidlar shohi") kabi buyuk shaxslar obrazini yaratishda ularni nafaqat tarixiy sharoit mahsuli sifatida, balki chuqur insoniy kechinmalarga ega, ziddiyatli ruhiyat sohibi sifatida tasvirlaydi. Bu yondashuv ularning tanlovlarini, iztiroblarini bugungi o'quvchiga yaqinlashtiradi, tarixiy mas'uliyatni zamonaviy shaxsning vijdon muammosi darajasiga olib chiqadi.

Vatan timsolining xronotopik talqini: Shoir she'riyatida "Vatan" timsoli tarixiy makon (Samarqand, Buxoro, Ko'hna shahar) va zamonaviy ruh (iztirob, sog'inch, ertangi kunga umid) uyg'unligida tasvirlanadi. Xronotop tushunchasi ("Samarqand xayoli" kabi asarlarda) oddiy dekoratsiya emas, balki qahramon ruhiyati va taqdirining uzviy qismiga aylanadi.

Lirik-falsafiy mushohada orqali o'tmishni anglash: Xurshid Davronning she'riyatidagi lirizm ko'pincha tarixiy hodisalar, ajdodlar ruhi yoki qadimiy manzillarga murojaat qilish bilan bog'liq. Bu holatda tarixiy xotira zamonaviy





insonning falsafiy mushohadasiga, hayot, o'lim, abadiylik va ma'no izlash kabi mavzularga chorlaydi.

Jadval 1: Tarixiy xotira va zamonaviy tafakkurning asosiy ko'rinishlari

Asosiy yo'nalish	Asar (Janr)	Tarixiy xotira komponenti	Zamonaviy tafakkur komponenti	Uyg'unlikning badiiy natijasi
Tarixiy siymoni jonlantirish	"Sohibqiron nabirasi" (Qissa)	Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrining murakkab siyosiy hayoti, ilm-fan va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlar tasviri.	Inson ruhiyatidagi iztirob, yolg'izlik va donishmandlikning falsafiy talqini.	Qahramonning chuqur psixologik portreti, tarixiy mas'uliyatning zamonaviy talqini.
Vatan timsoli talqini	"Eski shahar" (She'r)	Ko'hna Samarqand manzarasi, Bibixonim dahmasi, "Ziji Ko'ragon" aksi.	"Jim tabiat ichida yig'layotgan yurak" holati, sokinlikdagi chuqur iztirob va falsafa.	Tarixiy makonning lirik ruh bilan to'yinishi, o'zlikni anglash manbai sifatida tasvirlanishi.
Falsafiy lirizm	"Ona tilim" (She'r)	Tilning qadimiy ildizlari, tarixiy sinovlar ("Koshg'ariy kuylab o'tgan navo").	Bugungi kunda ona tilining milliy g'urur va o'zlikni saqlovchi ustun sifatida talqini.	Tilning tarixiy xotiraga yuksalishi, millat ruhining ramziy ifodasi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xurshid Davron ijodidagi tarixiy xotira shunchaki o'tmishga hurmat emas, balki uni zamonaviy shaxsning ruhiy ehtiyojlari va falsafiy savollari doirasiga kiritish harakatidir. Uning asarlarida o'tmish bugungi kunga dars, yo'l va ma'naviy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bu uyg'unlik adibning milliy o'zlikni anglash jarayoniga ulkan hissasidir. Xurshid Davron tarixiy siymolarning idealizatsiya qilingan (mifologik) obrazini buzadi va ularni insoniy zaifliklar, ziddiyatlar, buyuk orzular sohibi sifatida tasvirlash orqali zamonaviy o'quvchiga yaqinlashtiradi.

XULOSA. Xurshid Davronning badiiy ijodi mustaqillik davri o'zbek adabiyoti uchun tarixiy xotira va zamonaviy tafakkurning samarali uyg'unligini namoyish etuvchi o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Adibning serqirra ijodi, xoh u lirik she'r bo'lsin, xoh tarixiy qissa yoki drama, har doim o'tmish voqealarini bugungi insonning aqliy va ruhiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan yoritishga intiladi. Bu uyg'unlik ikki asosiy omil bilan belgilanadi: birinchidan, tarixiy faktlarga ijodiy yondashuv, ya'ni san'atkorona xayol bilan badiiy to'qima yaratish; ikkinchidan, o'tmish saboqlarini zamonaviy falsafiy mulohaza asosida yangilash.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davron shaxsida shoir, tarixchi va faylasuf uyg'unlashgan. U o'zbek adabiyotiga nafaqat buyuk ajdodlarimiz obrazini qaytargan, balki ularni o'zbek xalqining ma'naviy genofondidagi abadiy qadriyatlar sifatida bugungi avlodga tanishtirgan. Adib ijodi milliy g'oya, Vatan tushunchasi va insoniy fazilatlarni tarixiy xotira ko'zgusida aks ettirib, zamonaviy





o'quvchiga o'tmishni anglash orqali o'z kelajagini qurish mas'uliyatini yuklaydi. Uning asarlari o'zbek adabiyotining dunyo adabiy jarayonidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiluvchi, badiiy jihatdan mukammal namunalardir. Xurshid Davron ijodining barcha bosqichlarini, janrlararo o'ziga xosliklarini chuqur o'rganish davom etishi lozim bo'lgan muhim tadqiqot vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davlatova, A. — Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji — Toshkent: Tafakkur, 2021. B. 90.
2. Jamilova, B — Bolalar adabiyotida zamonaviylik — o'quv qo'llanma Buxoro 2023.
3. Normatova, Z. — Zamonaviy o'zbek she'riyati — Toshkent: Tafakkur, 2018. B. 92
4. Ulug'ov A, . — Adabiyotshunoslik nazariyasi . — Toshkent, 2017.
5. Usmanova, Z. I. — Xurshid Davron ijodida tarixiy fakt va badiiy to'qima uyg'unligi — Chirchiq: Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, 2024. B. 34.
6. Xurshid Davron. — Samarqand xayoli — Toshkent: Sharq, 1989. B. 5-15.
7. Xurshid Davron. — Sohibqiron nabirasi — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. B. 120-135.
8. Xurshid Davron. — Shahidlar shohi yoxud Shayx Kubro tushlari — Toshkent: Sharq, 1998. B. 200-215.
9. Xurshid Davron . — Qadrdon quyosh . — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979
10. Xurshid Davron — Shahardagi olma daraxti — Yosh gvardiya, Toshkent— 1979.





Yuqori sinf o'quvchilarida (10-11-sinf) o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol va innovatsion yondashuvlar

Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi

Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarining o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol va innovatsion yondashuvlarning ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. O'qish va yozuv ko'nikmalarini integratsiyalashgan shaklda rivojlantirishning metodik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari interfaol va innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'qish ko'nikmasi, yozuv ko'nikmasi, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, integratsiyalashgan ta'lim.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida yuqori sinf o'quvchilarining o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu yoshdagi o'quvchilar mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va dalillarga asoslangan yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qodir bo'lib, ularning akademik va hayotiy muvaffaqiyati asosan ushbu ko'nikmalar darajasiga bog'liq. Yuqori sinf o'quvchilari turli mavzular bo'yicha murakkab matnlarni o'qiy olish, asosiy g'oya va muallif pozitsiyasini aniqlash, shuningdek, o'z fikrini mantiqiy va izchil tarzda yozma shaklda ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

O'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat til bilimini oshiradi, balki o'quvchilarda analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil va faol o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, texnologik vositalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha o'quvchilarni passiv ishtirokchi sifatida qoldiradi va ularning tanqidiy fikrlash hamda yozma ifoda ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Shu sababli, ta'lim jarayoniga interfaol metodlar, gamifikatsiya elementlari, blended learning va flipped classroom texnologiyalari, shuningdek sun'iy intellekt vositalarini joriy etish zarur. Bu yondashuvlar o'quvchilarga matnni chuqur anglash, asosiy g'oyani tahlil qilish, izchillik bilan yozma fikr bildirish, o'z ishlarini tahlil qilish va konstruktiv fikr bildirish imkoniyatini yaratadi (Watkins, 2015; Conti & Smith, 2019). Shu bilan birga, yuqori sinf o'quvchilari o'z bilimini mustahkamlash, mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interfaol metodlar o'quvchilarni faollikka jalb qiladi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi. Masalan, *Think-Pair-Share* texnikasi o'quvchilarga matnni mustaqil o'qib, keyin juftlikda tahlil qilish va yakuniy fikrini sinf bilan





baham ko‘rish imkonini beradi. Ushbu metod o‘quvchilarda dialog va munozara ko‘nikmalarini rivojlantiradi, matnning mazmunini chuqur anglashni ta‘minlaydi. *Jigsaw reading* usuli murakkab matnlarni segmentlarga ajratib, har bir segmentni alohida guruhda o‘rganish va keyin barcha guruhlar bilan umumiy tahlil qilishga asoslangan (Kittle & Gallagher, 2018). Bu metod o‘quvchilarni bir-biri bilan muloqot qilishga, mas‘uliyatni bo‘lishga va murakkab kontentni yaxlit tushunishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, grafik organayzerlar (Venn diagram, mind map, concept map) matnning strukturasini vizual tarzda ko‘rsatib, o‘quvchilarga asosiy g‘oya va bo‘limlararo bog‘lanishlarni tushunishga yordam beradi.

Peer feedback, ya‘ni o‘quvchilararo baholash, o‘quvchilarga o‘z ishlarini tahlil qilish va konstruktiv fikr bildirish imkoniyatini yaratadi. Bu metod o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, muomala va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalar ham yuqori sinf o‘quvchilarida o‘qish va yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Sun‘iy intellekt (AI) vositalari, masalan ChatGPT, Grammarly, QuillBot, o‘quvchilarning yozma ishlarini tahlil qiladi, grammatik va stilistik xatolarni aniqlaydi va individual tavsiyalar beradi. Gamifikatsiya elementlari va o‘yinlashtirilgan mashg‘ulotlar (Quizizz, Kahoot, Wordwall) o‘quvchilarning matnga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, darslarni interaktiv va qiziqarli qiladi. Blended learning va flipped classroom texnologiyalari esa o‘quvchilarning mustaqil o‘qish va yozuv mashqlarini uy sharoitida bajarish imkoniyatini beradi va dars vaqtida muhokama, sharh va izohlar uchun ko‘proq vaqt ajratadi (Watkins, 2015; Conti & Smith, 2019).

Integratsiyalashgan o‘qitish — o‘qish va yozuv faoliyatini birlashtirish orqali o‘quvchilarda chuqur anglash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Masalan, o‘quvchilar matnni o‘qib, unga javob xati, esse yoki summary tayyorlash orqali o‘z fikrini aniq va izchil ifodalaydi. Read–Stop–Write strategiyasi esa bosqichma-bosqich matn tahlili va yozma fikr bildirishni rag‘batlantiradi (Pachler et al., 2014). Shu usullar o‘quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish, matnni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘quvchilar uchun loyihaviy ishlanmalar va integratsiyalashgan mashg‘ulotlar — masalan, kitob klublari, maqola yozish, blog yuritish yoki taqdimotlar tayyorlash — ularning o‘qish va yozuv ko‘nikmalarini real hayotiy kontekstda qo‘llash imkonini beradi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarni faqat nazariy bilim bilan cheklamay, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘z fikrini mustaqil va ishonchli ifodalashni o‘rgatadi.

Pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda o‘qish va yozuv mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchilarning matnni anglash, asosiy g‘oyani aniqlash, dalillarga asoslangan fikr bildirish va yozma nutq sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlantadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar o‘z ishlariga tanqidiy yondashishni o‘rganadi, o‘z fikrini mantiqiy izchil bayon etadi va akademik





matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Ushbu yondashuvlar ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, shaxsiy mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.

Yuqori sinf o'quvchilarida o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol va innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar, gamifikatsiya, sun'iy intellekt vositalari va integratsiyalashgan mashg'ulotlar o'quvchilarning matnni anglash, mantiqiy fikrlash, tanqidiy tahlil va yozma ifoda qobiliyatlarini samarali rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning motivatsiyasi oshadi, mustaqil ishlash va ijodiy yondashuvlar shakllanadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish yuqori sinf o'quvchilari uchun akademik va shaxsiy rivojlanishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Natijada, o'quvchilar o'z fikrini aniq, izchil va mantiqiy tarzda ifodalash, murakkab matnlarni tahlil qilish va ijodiy yondashuvni qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pachler, N., Evans, M., Redondo, A., & Fisher, L. (2014). *Learning to Teach Foreign Languages in the Secondary School*. London: Routledge.
2. Kittle, P., & Gallagher, K. (2018). *180 Days: Two Teachers and the Quest to Engage and Empower Adolescents*. Portsmouth: Heinemann.
3. Watkins, P. (2015). *Learning to Teach English*. London: Routledge.
4. Conti, G., & Smith, S. (2019). *Breaking the Sound Barrier: Teaching Language Learners How to Listen*. London: Routledge.





SHAYBONIYLAR DAVRI ME'MORCHILIGI TARIXSHUNOSLIGI

Mirzaxmatova Munisa Umidovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Turizm fakulteti 1-bosqich talabasi

Maslahatchi: **Mustafayev Voxidjon Zoxidjon o'g'li** magistr

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shayboniylar davriga oid tarixiy yondashuvlarning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Shayboniylar sulolasining XIV asr oxiri – XVI asr boshlarida tarix sahnasiga kirib kelishi, ayniqsa Muhammad Shayboniyxon davrida Movarounnahrda yuz bergan siyosiy va madaniy jarayonlar ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqotda Shayboniylar davri tarixini o'rganishda manbashunoslik va tarixshunoslik yo'nalishlarining o'zni ochib berilib, mahalliy va xorijiy manbalar, sayyohlar kuzatuvlarining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek tarixchilarining Shayboniylar davri me'morchiligi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari asosida ushbu davr me'moriy merosining uslubiy, texnologik va mafkuraviy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada Shayboniylar davrida Temuriylar an'analari davom ettirilgani, shu bilan birga hududiy me'morchilik maktablari shakllangani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Shayboniylar davri, Shayboniylar sulolasi, tarixiy yondashuv, tarixshunoslik, manbashunoslik, me'morchilik, Temuriylar merosi, Movarounnahr, diniy-ma'rifiy hayot, o'zbek tarixchiligi.

Annotation. This article analyzes the process of formation of historical approaches to the period of the Shaybanids. This article analyzes the process of formation of historical approaches to the period of the Shaybanids. The penetration of the shaybanid dynasty into the stage of history in the late XIV – early XVI centuries, especially the political and cultural processes. This article analyzes the process of formation of historical approaches to the period of the Shaybanids. The penetration of the shaybanid dynasty into the stage of history in the late XIV – early XVI centuries, especially the political and cultural processes that took place in Movarounnahr under Muhammad Shaybani Khan, is illuminated from the scientific point of view. The study reveals the role of sources and historiography in the study of the history of the Shaybanid period, and shows the importance of domestic and foreign sources, tourist observations. The methodological, technological, and ideological aspects of the architectural heritage of this period are also analyzed based on the research of modern Uzbek historians on the architecture of the Shaybanid period. The methodological, technological, and ideological aspects of the architectural heritage of this period are also analyzed based on the research of modern Uzbek.

Keywords: Shaibani period, Shaibani dynasty, historical approach, historiography, source studies, architecture, Timurid heritage, Movarounnahr, religious-educational life, Uzbek historiography.

Kirish. O'rta Osiyo tarixida Shayboniylar davri muhim siyosiy, madaniy va ma'naviy o'zgarishlar bilan ajralib turadi. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida





tarix sahnasiga kirib kelgan Shayboniylar sulolasi Muhammad Shayboniyxon davrida Movarounnahrda markazlashgan davlat tizimini shakllantirib, mintaqa taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu davr nafaqat siyosiy jarayonlar, balki madaniyat, ilm-fan va ayniqsa me'morchilik rivoji bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shayboniylar davri tarixini ilmiy o'rganish jarayonida manbashunoslik va tarixshunoslik yo'nalishlari asosiy o'rin egallaydi. Mahalliy tarixiy asarlar, xorijiy mualliflar va sayyohlarning qaydlari, shuningdek zamonaviy tarixchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu davrni har tomonlama tahlil qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, Shayboniylar davri me'morchiligi Temuriylar an'alarining davomiyligi bilan bir qatorda yangi uslubiy va texnologik jihatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Asosiy qism. Shayboniylar davriga tarixiy yondashuvning shakllanishi Shayboniylar sulolasi XIV asr oxiri va XV asr boshlaridan boshlab tarix sahnasiga chiqqan boshladi. Ularning siyosiy faolligi ayniqsa Muhammad Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrni bosib olganidan so'ng (1500-yillar) aniq ko'zga tashlandi. Ushbu davr tarixiga oid ilmiy yondashuvlar asosan ikki yo'nalishda shakllangan: birinchisi — tarixiy manbalar tahlili, ikkinchisi — tarixshunoslik doirasidagi ilmiy fikrlar va yondashuvlar. Bundan tashqari Shayboniylar davri tarixini o'rganish uchun turli tillarda yozilgan asarlar va sayyohlarning kuzatuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr siyosiy jarayonlarini o'rganishda nafaqat mahalliy, balki xorijiy manbalar ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlar esa ushbu tarixiy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shayboniylar me'morchilik tarixini zamonaviy O'zbek tarixchilardan Habibulla Ziyoyev, Anvar Qayumov, Ahmadjon Qayumov, Sh. Raximov, Zamonov A. va To'xtabekov K o'z tadqiqotlarida ma'lumotlar bergan. K. To'xtabekov Shayboniylar davrida me'morchilikning texnologik asoslari va uslublarini tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Uning fikricha: Shayboniylar davrida eski Temuriy an'alar davom ettirilgan, ammo bu davr o'ziga xos jihatlarni ham kiritgan, Toshkent va Farg'ona vodiysidagi me'moriy yodgorliklar, bu davrda hududiy me'morchilik maktablarining shakllanganidan dalolat beradi, u ayniqsa, g'isht terish uslubi, koshinkorlik bezaklari, me'moriy qismlarning mutanosibligi kabi texnik jihatlarni ilmiy asosda yoritgan. To'xtabekovning tadqiqotlarida Shayboniylar me'morchiligida ma'rifatparvarlik, ruhiy-axloqiy tarbiya va jamoaviy ibodatgohlar barpo etish g'oyalari ko'zga tashlanadi. Tarixchi olim H.Ziyoyev bu manbalarning Shayboniylar tarixini chuqur o'rganishdagi ahamiyatini ta'kidlab, "ular nafaqat tarixiy voqealarni yoritadi, balki sulolaning mafkuraviy asoslarini ham ochib beradi" deb yozadi. Shayboniylar davri tarixini o'rganish uchun turli tillarda yozilgan asarlar va sayyohlarning kuzatuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr siyosiy jarayonlarini o'rganishda nafaqat mahalliy, balki xorijiy manbalar ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlar esa ushbu tarixiy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

H.Ziyoyev "Shayboniylar davri madaniyati va san'ati".
Shayboniylar davri O'rta Osiyoning madaniy hayotida o'ziga xos burilish





